

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
Navoiy davlat pedagogika instituti

Qo'lyozma huquqida

Qurbonov Jamshid Djurayevich

**Mavzu: "Sharq ma'naviy merosining Fransiyadagi tadqiqot tajribasidan
maktab ta'limida foydalanish (Abu Rarhon Beruniy va Ibn Sino misolida)"**

Tarix fakulteti _____

tarix bo'yicha magistr darajasini olish uchun

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: t.f.d., Temirov G'.

Navoiy - 2016 yil

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Markaziy Osiyo hududi, jumladan yurtimiz insoniyatning eng qadimgi o'choqlaridan biri bo'lib, jahonning dastlabki sivilizatsiyalaridan biri shu o'lkada yaratilgan. Tariximizga e'tibor bersak, yurtimiz azaldan buyuk mutafakkirlar-u, olimlarni yetishtirib bergan ma'rifat o'chog'i bo'lgan. Bu borada prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, **“Buyuk alloma va mutafakkirlar, aziz-avliyolar yetishib chiqadigan joyda, avvalo, ilmu ma'rifat, madaniyat va ma'naviyat o'choqlari rivojlangan bo'lishi kerak.”**¹ Ona zaminimizdan yetishib chiqqan Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr ibn Iroq, Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi ko'pgina allomalar va mutafakkirlarining bugungi kunda jahon ilmiga buyuk siymolar sifatida tan olinishi yurtimiz tarixiga, xalqimizga berilgan bahodir. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, **“Bo'm bo'sh joyda hech qachon buyuk sivilizatsiya paydo bo'lmaydi.”**²

Bugungi kunda Sharq va G'arb mamlakatlarida birdek ehtirom bilan tilga olinadigan mutafakkirlarimizdan Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sino kelajak avlodga yirik ilmiy meros qoldirishdi. Bu ikki mutafakkirning ilmiy ijodi bugun insoniyat tarixida ilmiy jasorat ramzi bo'libgina qolmay, ibrat namunasi hamdir.

Buyuk mutafakkir, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning jahon ilm-fani, adabiyoti va san'ati taraqqiyoti tarixida roli beqiyosdir. Bir so'z bilan aytganda Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, Beruniyning **ilmiy dahosi bilan yaratilgan mislsiz kashfiyotlarga to'liq baho berishning o'zi qiyin.** Beruniyning 150 dan ziyod ilmiy ishlaridan bizgacha faqat 31 tasi yetib kelganiga qaramasdan, alloma qo'lyozmalarining qo'limizdagi ana shu to'liq bo'lmagan namunalari ham uning naqadar serqirra meros qoldirganidan

¹ Karimov I.A. “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir”. Toshkent. “O'zbekiston”. 2015, 114 bet

² O'sha manba. O'sha joyda

dalolat beradi.³Butun umri davomida fanning barcha sohalari bilan shug'ullangan Beruniy bugungi asrimizda Yevropalik olimlar tomonidan “butun insoniyatning dahosi” deb atayotganlari bejiz emas.

Yevropada “Tabiblar amiri” deya e'tirof etilgan Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy merosini besh asrda ortiq vaqt mobaynida g'arb mamlakatlari “tibbiy qonun” sifatida o'rganishdi. Butun dunyoda tabib va faylasuf sifatida mashhur bo'lgan Ibn Sinoning ilmiy va falsafiy qarashlari bugungi kunimizgacha olimlarni hayratga soladi. Ibn Sinoning shaxsi haqida yurtboshimiz I.A.Karimov: **“Islom olamining eng mashhur faylasufi va qomusiy allomasi hamda insoniyatning eng buyuk mutafakkirlaridan biri” degan unvonga sazovor bo'lgan Abu Ali ibn Sinoning hayoti va faoliyati avlodlarda alohida g'urur va ehtirom tuyg'ularini uyg'otadi**” – deb haqli ravishda to'g'ri baho berganlar.⁴

G'arbda “Avitsena” nomi bilan mashhur bo'lgan Ibn Sino va har zamon uchun insoniyatning “dahosi” nomini olgan Beruniy XI asrda Xorazm “Ma'mun Akademiyasi” da faoliyat ko'rsatgan davrlarida boshqa olimu fuzalolar qatori ilmiy anjumanlarda ishtirok etishgan. Keyinchalik bu ikki siymoning taqdirlari ayrilgan bo'lsa-da, ular hamisha o'rtalaridagi ilmiy muloqotlarni saqlab qolishgan. Beruniy va Ibn Sino o'rtalarida bo'lib o'tgan ilmiy suhbatlar va yozishmalar bugungi kunda bizgacha yetib kelgan. Yurtboshimiz bu haqda so'z yuritar ekanlar, **“...buyuk allomalarimizning ilmiy muloqot olib borish, antik davr falsafiy qarashlarini chuqur anglash va ularni rivojlantirish borasida naqadar yuksak darajaga ko'tarilganining mumtoz namunasi**dir” – deb ta'kidlaganlar.⁵

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida yurtimizda huquqiy demokratik jamiyat qurish ustvor vazifalardan qilib belgilandi. Bugun yurtimizda jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida barkamol insonni tarbiyalash eng asosiy, kechiktirib bo'lmaydigan jarayon hisoblanadi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, **«Sog'lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini,**

³Qarang.Prezident Islom Karimovning “O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi

⁴O'sha manba.

⁵ O'sha manba

faravon hayot asosini qurish deganidir”¹. Shu jihatdan olganda, mamlakatimizda sog'lom avlod dasturi harakatining keng tus olgani, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ta'lim-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug'vor vazifani amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamdir.

Huquqiy demokratik davlatimiz, ochik fuqarolik jamiyatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sanalmish ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi - bu jarayonning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasidan iborat. Shu boisdan, mamlakatimiz mustaqilligidan so'ng yosh avlodga o'tmish merosimizni xolisona baholashga keng imkoniyatlar yaratildi.

Istiqlolning dastlabki yillarida prezidentimiz davlatchilik tariximiz tub burilish pallasiga kirgan bir paytda o'zimizning zamon va makondagi o'rnimizni aniq belgilab olishimiz, nasl-nasabimiz, kimligimizni bilishimiz keraligini uqtirgan edilar. Bu yo'lda barcha akademik olimlarni, adib va tarixchilarga shunday mas'uliyatli vazifa topshirgan edilar.⁶ Bugun istiqlolimiz sharofati bilan yurtimiz rivojlanish va taraqqiyot davrini boshidan kechirayotgan bir davrda milliy madaniyatimizni, tariximiz va xalqimiz urf-odatleri, an'analarini jahonda bilmaydigan yoki tanimaydigan odam bo'lmasa kerak.

Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy merosini o'rganish, shuningdek, asarlarida keltirilgan ilmiy qarashlar yosh avlodni barkamol va jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashda, uning ichki dunyosini rivojlantirishda, binobarin, yangi ijtimoiy munosabatlarni barpo qilishda imkoniyat beradi. Pirovard natijada bu yangi ilmiy-madaniy, hamda ijtimoiy-siyosiy muhit, milliy mafkuraning ajralmas qismi sifatida milliy ongni shakllantirishni ta'minlaydi. Bu esa jamiyatimizda har tomonlama barkamol, sog'lom, dunyoqarashi teran shaxslarning shakllanish jarayonini tezlashtiradi.

¹Karimov I.A. "O'zbekiston buyuk kelajak sari". Toshkent: "O'zbekiston", 1998. 56-bet.

⁶Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". Toshkent: "Sharq" 1998, 5-bet

Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim - tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, insoniyatning yuzlab avlodlarini insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr - oqibat, mehnatsevarlik, do'stlik, saxiylilik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelgan. Xalqimiz yaratgan ma'rifiy fikr sarchashmalari qadim - qadimlarga borib taqaladi. Lekin mustaqillikka erishgunimizga qadar biz bu meroslarning baridan bebahra edik. Istiqlolimiz sharofati bilan milliy - madaniy merosimiz, qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizni o'rganish va uni yanada yuksaltirish uchun imkoniyatlar yuzaga keldi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqlarida ta'kidlaganlaridek: **"mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim - tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda"**. Bu esa qadimiy boy ma'rifiy merosimizning qimmatli manbalarini, bebaho xazinamizni yuzaga olib chiqish, uni hozirgi ilmiy - pedagogik tafakkur iste'moliga kiritishni taqoza etadi.

Prezidentimiz jamiyatimiz milliy mafkurasini yaratishda ham o'tmish mutafakkirlarimiz merosini muhim deb biladilar. U bu mafkurani yaratishda "milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga unutilmas hissa qo'shgan olimu fuzalolarning mafkura va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida qoldirgan ilmiy merosi, falsafiy qarashlarini har tomonlama o'rganish darkor. Men bu o'rinda Abu Nasr Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bahovuddin Naqshband, Voiz Koshifiy, Najmiddin Kubro kabi ulug' ajdodlarimizning shu mavzuga daxldor asarlarini nazarda tutayapman.

Muhtaram Prezidentimiz I.A. Karimovning ko'plab asarlari, ilmiy konferensiya va anjumanlarda so'zlagan nutqlari ham o'tmish tariximiz va merosimiz ahamiyatini yorituvchi muhim manbadir. Prezidentimiz "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarlarida **"Tarix – xalq ma'naviyatining asosidir"** degan

fikrlari faqat ta'lim tizimimizga emas, balki davlatchiligimiz, ma'naviy merosimiz, o'tmish tariximiz va barkamol avlod tarbiyasidagi milliy tarbiyamiz sohasiga ham taalluqlidir.⁷

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunda yurtimiz tarixiga oid ma'naviy merosimizni o'rganish, uni tadqiq etish muammosi ko'plab tarixchi olimlarni va tadqiqotchilarni o'ziga jalb qilmoqda. bu jarayonda tarixchilar, faylasuflar, pedagoglar, adabiyotshunoslar, psixologlar va jamiyatshunos mutaxassislar ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar. Yurtimiz olimlaridan Sharq uyg'onish davri muammolari bilan B.Bobojonov, A. Irisov, M. Xayrullayev, N. Ibragimov, I. Mo'minov, Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosi bilan A. Rasulov, B. Bulgakov, A.Irisov, A.Sharipov, P. Shermuhamedov, A. Qayumov, M. G. Davlatshin, A. Nosirov, Z. G. Nuritdinova, S. R. Raximov, I. M. Mo'minov shuningdek, Abu Ali Ibn Sino merosining tadqiqotlari bilan A. Qayumov, S. Mirzayev, A. Murodov, A. Rasulov, U. I. Karimov, Yu. N. Zavadovskiy, P.G. Bulgakov, H. Hikmatullayev, A. Irisov kabi olimlar ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishdi. Ammo bugungi kungacha ma'naviy merosimizning G'arb davlatlariga o'rganilganlik darajasi, ularning muammolari yaxlit tizimga to'laqonli o'z yechimini topganicha yo'q. Shuning ishning mavzusi **“Sharq ma'naviy merosining Fransiya'dagi tadqiqot tajribasidan maktab ta'limida foydalanish (Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino misolida)”** deb nomlandi.

Tadqiqot maqsadi: Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sino ilmiy merosini Fransiya Sharqshunosligi tadqiqotchiligidagi o'rganilganlik darajasini tahlil qilish va uni maktab ta'limida qo'llashning ahamiyatini ko'rsatish

Tadqiqot ob'ekti: Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sino ilmiy merosining Fransiya Sharqshunosligida o'rganilishi

Tadqiqot predmeti: Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sino ilmiy merosining Fransiya Sharqshunosligida o'rganilishining ahamiyati va uni maktab ta'limida qo'llashning mohiyati

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

⁷Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”. Toshkent: “Sharq” 1998, 21-bet

1. IX-XII asrlar Markaziy Osiyoda sodir bo'lgan ilmiy yuksalish avri o'rganildi;
2. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi va uning Fransiya tadqiqotchiligida o'rganilishi tadqiq qilindi;
3. Abu Ali Ibn Sino asarlarining Fransiya Sharqshunosligida o'rganilishi tahlil qilindi;
4. Fransuz sharqshunoslarining tajribalarini maktab ta'limida foydalanishning ahamiyati yoritildi;

Tadqiqotning metodologik asosi:

O'zbekiston Respublikasining **“Ta’lim to’g’risida”** gi, **“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”** to’g’risidagi Qonuni, Prezidentimiz I.A. Karimovning **“Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida”** gi (№ PF-1869 sonli 06.10.1997) farmonlari; Vazirlar Mahkamasining **“Umumta'lim maktablari uchun darsliklar... nashr qilish tizimini takomillashtirish` loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”** gi (1998.05.04 №187 O'zR VM Qarori) Qaroriga doir hujjatlar yuzasidan Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sino asarlarining Fransuz sharqshunosligida o'rganilish tajribasiga va uning maktab ta'limi masalalariga doir qarashlariga asoslanadi

Tadqiqot metodlari: Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ilmiy-metodologik (kuzatish), ilmiy tadqiqot metodologik (tavsiflash, tushunturish, fakt) pedagogik (kuzatish, tahlil qilish); pedagogik tajriba-sinov ishlarini olib borish va olingan natijalarni statistik tahlil qilish, umumlashtirish.

Himoyaga olib chikiladigan holatlar:

1. Abu Rayhon Beruniy merosining Fransiya tadqiqotchiligida o'rganilishi darajasi;
2. Abu Ali Ibn Sino asarlarining Fransuz sharqshunosligida o'rganilishi;
3. Sharq ma'naviy merosining komil inson tarbiyasida qo'llashning ahamiyati

4. Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sino ilmiy merosining fransuz tadqiqotchiligi tajribasini maktab ta'limida qo'llash masalalari;

Tadqiqotning nazariy ahamiyati: Tadqiqot mobaynida amalga oshirilgan maxsus adabiyotlar sharhi va olingan natijalar asosida ilgari surilgan nazariy g'oyalar, chiqarilgan ilmiy xulosalar tarix, falsafa va adabiyot fanlarining mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Tadqiqotdan olingan natijalar asosida Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sino merosini o'rganishda fransuz sharqshunoslari tajribalaridan foydalangan holda maktab ta'limi metodikasini samarali yo'lga quyishga imkon yaratildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sino ilmiy merosining fransuz sharqshunosligida foydalanish va uni maktab ta'limida qo'llash g'oyalaridan falsafa, tarix, adabiyot va pedagogika fanlarida didaktik material sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va asoslanganligi: Muammoni hal etishga tizimli va yaxlit yondashuv, tadqiqot maqsadining aniqligi; ilmiy faraz hamda vazifalarning maqsadga muvofiq ravishda belgilanganligi.

1.1.IX-XII asrda Movarounnahrda ilm-fan taraqqiyoti

Tarixdan ma'lumki, jamiyatning rivojlanishi har doim ham birdek yumshoq kechmagan. Insoniyat umri davomida juda ko'p to'siqlarni, inqiroz va tanazzullarni boshdan kechirdi. Ularni bardosh bilan yengib, qaytadan moddiy va ma'naviy qadriyatlarni vujudga keltirdi va taraqqiyot sari intildi. Insoniyatning faol harakati, hamda intilishi evaziga ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat kabi sohalar taraqqiy etib, katta yutuqlarga erishib borildi. Ushbu yutuqlar davlatning ma'lum bir tarixiy davrlariga xos bo'lib, ular "uyg'onish davri", "renessans", "katta sakrash" kabi tushunchalar bilan yuritiladi.

Uyg'onish davrining paydo bo'lish g'oyasi Yevropa tarixi bilan bog'liq. Rim imperiyasi qulaganidan so'ng paydo bo'lgan yangi dunyoqarashda qadimgi madaniyatning pasayib tushkunlikka uchrashi va o'rta asrlarning so'nggi davrida ushbu madaniyat qaytadan "uyg'onganligiga" nisbatan aytiladi. Uyg'onish g'oyalari cherkov sxolastikasi qarshisidan inson ruhiy ozodligi uchun kurashishda, uning iste'dodi va aqliy imkoniyatlarini namoyish etishda, adabiyot va san'at sohalarida cherkov ta'siriga qarshi kurashda ko'rindi.

Bugungi kunda bir qator tadqiqotchilar Renessans (Uyg'onish) atamasini dastlab italiyalik gumanistlar tomonidan ishlatilgan degan fikrni ilgari surishadi. Manbalarda XIV asrda yashagan gumanist olim Jovanni Bokachcho ushbu atamani italiyalik rassom Jotto di Bondone ijodiga qarata, "u antik san'atni uyg'otdi" deb birinchi bor ishlatganligi haqida ma'lumotlar mavjud.⁸ Ammo ushbu atama ma'lum davrni inobatga olib Italiyaga XIV-XVI asrlarda sodir bo'lgan madaniy yuksalishga nisbatan qo'llanilgan. Italiya madaniyatining birinchi tarixchisi, gumanist J. Vazare "Mashhur san'atkorlar hayotida lavhalar" (1550) asarida butun bir davrni nazarga tutib, "renessans" ("*rinascila*" - "*uyg'onish*") deb atadi. Bu davrda rassomlar, yozuvchi va faylasuflar ijodida cherkov g'oyalari tushib, inson va uning faoliyati bosh g'oya darajasiga ko'tarilib yangi davrni ochib berdi. XV

⁸<http://www.artprojekt.ru/gallery/giotto/Gio50.html>

asrda yashagan tarixchi Lorenzo Valla o'z davrining san'ati va adabiyoti haqida "yangidan uyg'ondi va yuksaldi" – deb qayd etadi.⁹

"Renessans" atamasining lug'aviy ma'nolariga e'tibor bersak, adabiyotga oid lug'atda madaniy pasayish va turg'unlik bosqichidan madaniyatning yangi davrga sifatli rivojlanishiga nisbatan¹⁰, zamonaviy lug'atda madaniy va tafakkuriy taraqqiyotga nisbatan¹¹, O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida madaniy ko'tarilish, ilm-fan va insonparvarlik g'oyalarining, shuningdek, aqliy va ijodiy faollikning gurkirab rivojlanishiga nisbatan¹² qo'llaniladi.

Bugungi kunda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda Uyg'onish davri muammolari tadqiq qilinmoqdasr Tadqiqotlarda Sharq va G'arb mamlakatlarida sodir bo'lgan Uyg'onish davri o'rtasidagi farqlarni ko'rishimiz mumkin. Ikkala qit'ada sodir bo'lgan madaniy yuksalishda qadimgi yunon uyg'onish davrining hissasi borligini inkor etib bo'lmaydi. Sharqda olimlar asosan, yunonlarning falsafa (Aristotel, Platon), tibbiyot, optika, matematika, astronomiya, alkimyo kabi fanlarni tadqiq qilib, ularni yanada boyitishgan bo'lishsa, Yevropada she'riyat, adabiyot, ritorika, drama, tarix va harbiy ish kabi sohalar o'zlashtirilgan.

Renessans — Markaziy Osiyo, Eron, Xitoy (912 va 15-asrlar), G'arbiy Yevropada yuz bergan alohida madaniy va tafakkuriy taraqqiyot davri. "Renessans" atamasi dastlab Italiyadagi madaniyma'naviy yuksalish (14—16-asrlar)ga nisbatan qo'llanilgan, uni o'rta asrchilik turg'unligidan yangi davrga o'tish bosqichi deb baholaganlar. Renessansning asosiy alomatlari: tafakkurda va ilmu ijodda dogmatizm, jaholat va mutaassiblikni yorib o'tib, insonni ulug'lash (q. Gumanizm), uning iste'dodi, aqliyfikriy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish; antik davr (yunonrum) madaniyatiga qaytib, uni tiklash, boyitish; cherkov sxolastikasidan qutulib, adabiyot va san'atda dunyoviy go'zallik, hayot taronalarini qizg'in kuylash; inson erki, qurfikrlilik uchun kurashish. Buning natijasi o'laroq, ijodiy qudrat va tafakkur kuchini namoyish etadigan ulug'vor badiiy asarlar,

⁹ Цит. по кн.; Из истории социально-политических идей. 1955, ст.135-136

¹⁰ Литературная Энциклопедия терминов и понятий. Гл. ред. А.Н.Николокин. М. 2001., ст. 131

¹¹ Современный энциклопедический словарь. М. 1997.

¹² Falsafaensiklopediklug'at.O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T. 2010 y., 265-bet;

salobatli binolar yaratildi, ilmfan rivojlandi. Italiyada shoir Petrarka va Dante, rassom Jotto, adib va mutafakkirlar Bokkachcho, Ariosto, Tasso, Byome Renessans g'oyalarining jarchilari bo'lib maydonga chiqsilar. Keyinchalik Mikelanjelo, Rafael, Shekspir, Servantes Yevropaning turli mamlakatlarida buni davom ettirdilar.

Ammo Renessans, ya'ni Uyg'onish faqat Yevropa hodisasi emas. Dunyo madaniyatini yaxlit olib o'rgangan olimlarning ishlari shuni ko'rsatdiki, Osiyo markazida joylashgan Movarounnaxr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin (9— 12-asrlar) ulkan madaniy ko'tarilish yuz bergan, ilmfan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg'or insonparvarlik g'oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan. Bu davr dunyo ilmida "Musulmon Renessansi" (A. Mets) yoki "Sharq Uyg'onishi" (N. I. Konrad) nomi bilan atalib kelinmoqsasr Sharq Uyg'onish davrida Yevropa Uyg'onish davrining asosiy belgilari mujassam: jo'shqin ijodiy faoliyat, ulkan bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilgani, aqlni hayratga soluvchi bemisl asarlarning yaratilgani shundan dalolat beradi. Sharq Uyg'onish davri ham ulug' allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlarni yetishtirdi. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmip, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad alFarg'onip, Umar Xayyom, Mirzo Ulug'bek jahonshumul kashfiyotlar qildilar. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad G'azoliy, Nasafiy Aziziddinlarning falsafiy asarlari tafakkur xazinasini boyitdi, olam, odam va jamiyat yaxlitlikda tadqiq etilib, yangi qonuniyatlar ochildi, aqliy bilim ufqlari kengaydi, fozil jamiyat va komil inson nazariyasi chuqur ishlab chiqiddi. She'riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulalo alMaarriy, Abulqosim Firdavsiy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjavip, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi daho ijodkorlar yetishib, o'lmas asarlar yaratdilar, ishqmuhabbat, qahramonlik, ozodlik va ezgulikni kuyladilar. Miniatyura rassomchiligida bir necha maktablar shakllandi, bunda Kamoliddin Behzod rasmlari yangi ijodiy yo'nalishga asos soldi. Uyg'onish davri ning yana bir belgisi xalq ruhini ifodalaydigan "Ming bir kecha", "Kalila va Dimna", "Qirq vazir", "To'tinoma", "Sindbodnoma", "Jome'ul hikoyot" kabi

qiziqarli sarguzashtlarga to'la, shavqu zavq qo'zg'atadigan asarlarning ko'paygani, ikkinchi tomondan "Xamsa"larda bo'lganiday, insoniy ideallarni mujassam etgan hikmat va falsafaga boy umumbashariy g'oyalarning tasvirlanishidir.

Eron va Markaziy Osiyo xalqlari bir necha ming yillik sivilizatsiya tarixiga egasr Zotan, qadimiyati, qad. davlatchiligi bo'lmagan xalqda Uyg'onish davri ham bo'lmaydi. Markaziy Osiyoda 9—13aslarda o'z xalqining qadimiyatiga qaytish, Avesto falsafasini Qur'on ma'rifati bilan uyg'unlashtirib, qayta tiklashga intilish tasavvuf ta'limoti, "ishroq" falsafasida namoyon bo'lgan. Shu asosda turli nazariyalar, ta'limotlar yuzaga kelib, fikriy xilmaxillik rivojlandi. Tasavvufiyorifona ta'limotning qaror topishi, tariqatlar ham, aslida, hurfikrlik va inson kamolotiga bo'lgan ishonchning nishonasi edi. Uyg'onish davri vakillari dinga emas, balki dinni sxolastika va jaholat manbaiga aylantirgan kishilarga qarshi kurashganlar.

Tafakkurdagi ikki: akliy (ratsionalizm) va vajdiy (irratsionalizm) yo'nalish namoyandalari zohiran o'zaro kelishmay kelgan bo'lsalarda, amalda Yevropa Uyg'onish davrida bo'lganidek, inson ongini bedor etish, uni aqidaparastlik (taqlidchilik) g'uboridan tozalashda hamkorlik qildilar. Shu bois hurfikrli mutafakkirlar orasida ratsionalist olimlar bilan birga, orif sufiylar ham bor edi.

Sharq Uyg'onish davri vakillari o'z xalklarining ked.madaniyat bilan birga, yunon vahind xalqlari merosidan ham foqdalanishgan. Yunon olimlarining asarlari 8—9-asrlarda arab tiliga tarjima qshshndi, sharxlandi. Aflotun, Arastuni Sharq faylasuflari ham o'z ustozlari deb hisoblashgan, Plotin qarashlari Ibn alArabiyga ta'sir etib, "vahdatul vujud" falsafasiga turtki berdi. Biroqyunonlar ko'p fikrlarni qad.osiyoliklardan olganlar. Bu tarix qonuniyati; Abu Rayhon Beruniyning "Kitob attafhim li avoil sinoat attanjim" asari qo'lyozmasi (13a).yuksalishga shaylangan xalq o'z madaniyati va o'zigacha yaratilgan bashariy yutuqlarni o'zlashtirib, yana yuksaklikka ko'tariladi.

Sharq Uyg'onish davri keng ko'lamli: ta'lim va tahlil, madrasamaorif rivojlangan, ulkan kutubxonalarda yuz minglab jild kitoblar yig'ilgan, "xazinat

ulhikma", "dor ululum"larda tolibi ilmlar, ustozshogirdlar suhbatlari davom edi, olimning obroʻe'tibori yuksak qadrlandi. Sharq Uygʻonish davri yutuqlari Gʻarbiy Yevropadagi Uygʻonish davriga bevosita taʼsir etgan. Chunki 12—14-asrlarda musulmon olami bilan Yevropa davlatlari orasida aloqa kuchaygan edi. Ayniqsa, tutash chegara mamlakatlari: Qurdoba (Ispaniya), Kavkaz, Bolqon yasro. da bu jarayon kuchli boʻlgan. Yevropaliklar Sharq olimlarining asarlarini lotin, ispan, yahudiy tillariga qilingan tarjimalar orqali yoxud bevosita arab tilida oʻqib oʻrganganlar. Ibn Sinoning "Tib qonunlari", "AshShifo", Forobiyning "Ilmlar tasnifi", Ahmad Fargʻoniyning "Samo harakatlari va yulduzlar ilmining jami kitobi", Muxammad Muso Xorazmiyning "Aljabr val muqobila", Ibn Rushd, Abu Bakr Roziy asarlari tarjima qilinib, keyinchalik nashr etilgan. Algebra, algoritm fanlari Xorazmiy asarlari tufayli shakllangan. "Tib krnunlari" 7 asr mobaynida Yevropa untlarida tibbiyot darsligi sifatida xizmat qildi. Ibn Sino shogirdi Ibn Rushd goyalari Italiya, Fransiya hurfikrligini boshlab bergan. Ibn Sino — Avitsenna, Ibn Rushd — Averroes, Ahmad Fargʻoniy — Al Frageni, Abu Bakr Roziy — Al Ramzats, Abu Ma'shar Balxiy — Albumazar degan lotincha nomlar ostida mashhur boʻlgan. "O'sha paytda (13—16-asr) jaholat changalidagi Yevropaning ko'pgina qismida musulmonlar ilm charog'ini yoqdilar...; ispanlar yozuvi ham, shimoliy oramiy yozuvi ham Osiyodan olingan; shim., gʻarbiy va sharqiy Yevropa madaniyati yunon — rumo — arab urugʻidan unib chiqqandir" (G.Gerder). Platon, Aristotel asarlari ham Yevropaga dastlab arabcha tarjima va talqinlar orqali kirib borgan. "Sharkliklar Gʻarbni Aristotel falsafasi bilan yoritdilar" (Gegel).

Aniq fanlar va ularni oʻrganish usullarini, dehqonchilik va chorvachilik ilmlari, dengizda suzish, qarbiy texnikani Yevropa sharqdan olib rivojlantirdi. "Matematika, kimyo, tibbiyot sohasida musulmonlarning xizmati buyuk... bu fanlarda musulmonlar Yevropaning muallimlari boʻlib qoldilar" (G. Gerder). Yevropa Uygʻonish davri adiblari Dante, Petrarka, Bokkacho Sharq ilmfani, adabiy asarlaridan ilhomlanganlar. Dante "Bazm", "Ilohiy komediya" asarlarida Ibn Sino va Ibn Rushdni oʻz ustozlari qatorida ehtirom bilan tilga oladi.

Axmad Fargʻoniy asarlaridan foydalanganini qayd etadi. K. Marlning "Buyuk Temur" dramasida Amir Temur jasur, xaloskor inson sifatida tasvirlangan.

Musiqada ham Uygʻonish davri jarayoniga xos yuksalish dastlab Sharkda yuz berdi. Markaziy Osiyo xalqlarining qad.anʻanalari arab, hind va fors musiqiy meros asarlari, cholgʻulari bilan oʻzaro taʻsir jarayonlari natijasida yanada boyib qaytadan jonlandi. Zero, Forobiy va uning izdoshi Ibn Sino musikaning nazariy, falsafiy va estetik masalalarini atroflicha tadqiq etib, umumsharqiy taʻlimotni yaratishgan. Xususan, Yaqin va Oʻrta Sharq xalqlari musiqa amaliyotiga tayangan holda, kuy va usullar, qoʻllaniladigan sozlar, muayyan shakl va janrlar doirasida mushtaraklik mavjudligini isbotlashgan. Forobiyning "Kitob ul musiqa alkabir" ("Musiqaga doyr katta kitob") va, ayniqsa, Ibn Sinoning "Javome' ilm ulmusiqi" ("Musiqaga oid ilmlar toʻplami") kabi asarlarida yunon olimlari (Pifagor, Aristoksen va boshqalar)ning qarashlari boyitilib, tovushlar balandpastligi munosabatlari matematik uslubda ifodalangan. Shuningdek, sof tovushqator tizimi, undan oʻrin olgan budlarning muloyimat va munofirat tasnifoti, iyqo nazariyasi ilk bor asoslab berilgan. 12—13-asrlarda ijodiy va aqliy kuchlar rivojini namoyish etgan Oʻn ikki maqom tizimi yuzaga keldi. Amir Temur (14 asr) va Temuriylar (15—16-asrlar) musiqaning barcha jabhalarida yangi Uygʻonish davri yuzaga kelishini taʻminlab berishdi. Turli mamlakatlardan Samarqand, Buxoro kabi markazlarga keltirilgan sanʻatkorlar — bastakorlik, musiqa ijrochiligi va musiqashunoslik jadal rivojlanishiga hissa koʻshishgan. Mazkur sohalarda nainki muayyan kasb egalari, balki oʻzga badiiy ijod sohiblari, xususan, Mirzo Ulugʻbek, Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Boburlar ham nom chiqarishgan. Bu davrda mahalliy maqom ijodiyoti va ijrochiligi yuksaldi, ogʻzaki anʻanadagi musiqaning boshqa rivojlangan shakllari (doston, ashula, cholgʻu kuy va boshqalar) keng oʻrin egallab, oʻzlarining yuqori pallalariga koʻtarildi. Ayni shu jarayon keyinchalik Buxoro Shashmakrmi, Xorazm maqomlari va Fargʻona — Toshkent makom yoʻllari, katta ashulalar shakllanishiga olib keldi.

Yevropa musikasida Uygʻonish davri tamoyillari dastlab 14-asrda tashkil topgan ilgʻor yoʻnalish — "Are nova" namoyandalari (ayniqsa, Italiyadagi vakillari — F. Landino va boshqalar) ijodida oʻz ifodasini topdi. Ular dunyoviy mazmundagi ilk professional vokal musiqa shakllari (ballada, madrigal, kachcha va boshqalar)ni ijod qilishdi, sheʼriy matnlar mazmuniga alohida ahamiyat berib ifodali, erkin tuzilishdagi kuylar yaratishdi. Uygʻonish davri cholgʻu musiqaning dastlabki mustaqil shakl va janrlari (richerkar, prelyudiya, fantaziya, tokkata) yuzaga keldi, ayniqsa lyutnya, klavesin va klavikord musiqasi keng rivoj topdi. Ijodkorlar va musiqa nazariyotchilarining antik davr badiiy merosiga qiziqishi tufayli yangi janrlar (mas, yunon tragediyasini "tiklash" jarayonida — opera), koʻp ovozli musiqada polifoniyankng qatʼiy uslubi, keyinchalik gomofoniya uslubi k,aror topdi. Diniy musiqa janrlari (messa, motet) isloh qilindi, notalar chop etilishi joriy etildi, jonli musiqa amaliyotini umumlashtiruvchi musiqa nazariyasi (Tinktoris, J. Sarlino) rivoj topdi. Aynan shu davrda muayyan xalklarda yangi milliy va mahalliy kompozitorlik maktablari paydo boʻldi: niderland (Dyufai, Y. Okegem, J. Depre), fransuz (K. Janeken va boshqalar), nemis (G. Fink va boshqalar), ingliz (Dansteybl, U. Byord va boshqalar), ispan (K.de Morales va boshqalar), Rim (Palestrina), Venetsiya (ASR va J. Gabriyeli) va boshqa Uygʻonish davrining pirovardida Yevropa kompozitorlik ijodiyotida Sharq mavzu va obrazlariga qiziqish kuchayib, ingliz G. Pereyem va fransuz J. Ramo umumsharqona ekzotikani ifodalashgan. Bular anʼanasi keyinchalik Sohibqiron Amir Temurni bosh qahramon sifatida gavdalantirgan Italiya (ASR va D. Skarlattilar, ASR Vivaldi va boshqalar), Germaniya (G. Gendel, G. Teleman va boshqalar) mualliflarining operalarida teranlashgan.

Uygʻonish davrida teatr sanʼati xayot koʻzgusi hisoblanib, koʻpqirrali inson xarakteri, real voqelik ziddiyatlarini aks ettirishga alohida ahamiyat berdi. Bu davr teatr namoyandalari antik drama tajribalaridan foydalanib xalq tomosha sanʼati anʼanalarini rivojlantirdilar, kundalik hayot zavqshavqini idrok qilishga daʼvat etilgan dunyoviy sahna asarlarini yaratishga harakat qildilar (L. Ariosto, ASR Politsiano, N. Makiavelli va boshqalar). Ispaniyada Uygʻonish davridagi teatr

rivoji M. Servantes va Lope de Vega, Angliyada U. Shekspir ijodi bilan bog'liqdir. Uyg'onish davrida teatr san'ati professional omillari kuchaydi, dramaturgiya va aktyorlik san'ati nazariyasi qaror topdi, ilk teatr binolari qurildi.

Uyg'onish davri me'morligi qad.an'analarni o'zlashtirib, uni yangi mazmun bilan boyitdi, yangi me'moriy qurilmalar vujudga keldi, ko'p qavatli uylar, yangi qiyofadagi jamoat binolari qad ko'tardi. Binoni tashqi va ichki tomonlarini bezash, kenglikni tashkil etish borasida xam muayyan yutuqlarga erishildi. Bu o'zgarishlar Italiyaning Florensiya, Piza, Siyena, Genuya, Milan, ayniqsa, Venetsiya sh.larida juda sezilarli bo'ldi. Ulkan binolar, g'oyat katta gumbazli va bir nechta ustunli saroy va ibodatxonalar qurildi, ayniqsa, florensiyalik me'morlar antik me'morlik an'analari va order tizimidan unumli foydalandi. Bu an'analarni o'rta asr Italiya me'morlik texnikasi yutuqlari, mahalliy qurilish xom ashyolari va konstruksiyalari bilan uyg'unlashtirib, renessans me'morligi uslubini yaratdilar. Devor sathi tekisligining yaxlitligiga e'tibor kuchaydi, me'morlik mujassamotining chizikli ritmi va mutanosibligiga, xonaning kengligiga, uning yaxlit va ko'rkamligiga ahamiyat berila boshlandi; turar joy va ibodatxonalar qurilishi ham yangilandi. Shaharning ijtimoiy ma'muriy markazi tarhi va tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan yangi tipi paydo bo'ldi. Florensiyada shakllangan yuksak Uyg'onish davrining mumtoz uslubi Rimda, keyinroq Venetsiyada monumental yodgorliklar (monumental san'at) yaratilishiga sabab bo'ldi. Yirik me'moriy ansambllar vujudga keldi, "ideal" shaharlarning loyihalari yaratildi.

Italiya me'morligida paydo bo'lgan yangi an'analarni Uyg'onish davrining buyuk me'morlari ishlarida uz aksini topdi. Jumladan, Filippo Brunelleski katta gumbazli bino qurish muammosini hal qildi (diametri 42 m bo'lgan 8 qirrali gumbazli SantaMariya del Fore sobori), L. Alberti o'zi yaratgan yangi me'moriy kompozitsiyalarini ilmiy nazariy bayon qilgan "Me'morlik to'g'risida 10 kitob" asari bilan nazariyotchi olim sifatida namoyon bo'ldi. Shu tarzda yuksak Uyg'onish davri me'morligi uslubiga zamin yaratildi. Yuksak Uyg'onish davri ning asosiy tamoyillari Rimda shakllandi va rivojlandi, davrning insonparvarlik

g'oyalari ulug'vor va hashamatli me'moriy kompozitsiyalarda o'z ifodasini topdi. Amaliyotda antik me'moriy orderlar erkin va ijodiy ishlatila boshlandi, me'moriy uslublar birlashtirilib yagona milliy me'morlik uslubi shakllandi. D. Bramante, Rafael, Mikelanjelo va boshqa murakkab me'moriy majmualarida yuksak mahorat, boy ilm va nazariy fikr, o'tkir tafakkurni namoyon qildilar, badiiy yechimining go'zalligi, nisbat va shakllar o'ynining boyligi, kompozitsiya yechimining rang-barangligi insonga zavq bag'ishlaydigan me'moriy makonni yaratdilar.

So'nggi Uyg'onish davrida yirik me'moriy inshootlar o'rnini xususiy buyurtmalar kengroq egalladi. Villa, palatso qurilishi sohasida ko'zga ko'rinarli ishlar qilindi. Bog'park me'morlik uslubi (bog' tuzish san'ati) shakllandi. Pastbalandlikka ega bo'lgan maydonda bog' yaratish muhim ahamiyat kasb etdi: pastbalandliklar birbiri bilan murakkab zinalar orqali bog'landi, tepalik va qiyaliklar turli bezak qurilmalar (g'or, suv kaskadlari, favvora, haykallar) hamda manzarali o'simliklar bilan bezatildi. Asosiy yo'l, qolgan yo'lka va zinalar darvozaga yo'naltirilgan bo'lib, kompozitsiyaning tugal bo'lishini ta'minlagan. Me'moriy nazariy masalalarga e'tibor ortdi. Bunyod etilayotgan binolarni ilmiy asoslashga intilish kuchayib, bir nechta ilmiy asarlar yaratildi. 16-asr o'rtalaridan Italiyada maxsus o'quv yurtlari, akademiyalar tuzildi va ularda me'morlikka oid ta'lim berilishi muhim voqea bo'ldi. Bu esa Yevropa me'morligining keyingi taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatdi, me'moriy klassitsizm tamoyillarining shakllanishida muhim rol o'ynadi.

Uyg'onish davri Italiyadan tashqarida (shartli ravishda "shimoliy" deb nomlangan) 15-asrda rivojlandi. Gotika an'alarini ijodiy anglagan ustalar ayrim hodisalarni amaliy yo'l bilan o'zlashtirib bordilar. Niderlandiya va Germaniyada Uyg'onish davri me'morligi so'nggi gotikaning taraqqiy etgan davriga to'g'ri keldi (Antverpendagi ratusha, 1561—65, me'mori K. Floris; Germaniyaning Geydelbergidagi saroy, 1556—59). 16-asr o'rtalarida Fransiyada antik davrga hamda Italiya Uyg'onish davri me'morligiga asoslangan o'ziga xos me'moriy uslub shakllandi (Shambor qasri, 1519—40, me'mori T. va D. Surdo, P. Nevo va

boshqalar). Ispaniya, Chexiya, Polsha, Vengriya Uygʻonish davri meʼmorligi oʻziga xos milliy xususiyatlarga ega boʻlgan (Pragadagi Belveder yozgi saroyi, 1535— 63, meʼmori J. Spatsio va boshqalar).

Uygʻonish davrining buyuk gʻoyalari, ayniqsa, tasviriy sanʼatda yorqin ifodalandi; hayotga muhabbat, insonga, uning irodasi va aqliga katta ishonch bildirildi. Antik davr merosini ijodiy oʻzlashtirgan italyan rassomlari zamonasining ilmfan yutuklariga tayanib inson va uni oʻrab turgan muhitni haqqoniy aks ettirishga urindilar. Ular sanʼatni perspektiva, proporsiya, nursoya, ritm, rangshunoslik, hajm, rakurs va h.k. hamda odam tanasi tuzilishi haqidagi aniq bilimlar bilan boyitdilar, ikonadan kartinaga oʻtildi, haykaltaroshlik mustaqil janrga aylandi, freska sanʼati kjsaldi. Yangi davrning ilk xususiyatlari 13—14-asrlar rassomlar (rassom Jotto, haykaltarosh N. Pizano) ijodida kuzatildi, 15-asr boshlarida yangi badiiy dunyoqarash rassom Mazachcho, haykaltarosh Donatello ijodida yorqin namoyon boʻldi. Yuksak Uygʻonish davri Italiya sanʼatida nisbatan qisqa davrni oʻz ichiga oladi, lekin mazmunan juda ulugʻ boʻlib, Italiya sanʼatining "oltin asri" hisoblanadi. Bu davr Leonardo da Vinchining psixologik taʼsirchan asarlarida, uygʻunlikda ishlangan Rafael polotnolarida, kurash ruhi bilan yoʻgʻrilgan Mikelanjelo rangtasvir va haykaltaroshlik asarlarida, Jorjone, Titsianning koloritga boy hayotbaxsh kartinalarida va boshqalarda namoyon boʻldi. 16-asrning 2choragidan boshlangan Italiyadagi iqtisodiy va madaniy inqiroz gumanistik goyalarning barbod boʻlishi va soʻnishini boshlab berdi. Uygʻonish davrining dunyoviy, hayotbaxsh sanʼati va madaniyati oʻrnini tushkun gʻoyalarni ilgari suruvchi tashqi jihatdan yaltiroq, lekin hayotdan, uning muammolaridan uzoq boʻlgan sanʼat (manyerizm) egallay boshladi va keng yoyildi.

Uygʻonish davri Italiyadan tashqarida Gʻarbiy va Markaziy Yevropada 15-asrdan boshlab notekis rivojlandi, individual inson obrazi va uning muhitiga boʻlgan katta qiziqish diqqatga sazovor. 15-asr niderland rassomlari Yasr Van Epk va X. van der Gus, keyinchalik boshqa rassomlar oddiy odamlarni tasvirlashga katta eʼtibor berdi. 16-asr 2yarmi rassomlari (P. Breygel Katta) ijodida demokratik

an'analar yorqin namoyon bo'ldi. Germaniyada keskin siyosiy va g'oyaviy kurashlar davrida o'tkir ijtimoiy xususiyatga ega bulgan grafika va rangtasvir keng tarqaldi (ASR Dyurer, X. Xolbeyn Kichkina va boshqalar). Fransiyada o'ta uygunlashgan dunyoviy mazmundagi Uyg'onish davri rivojlandi, psixologik portretlar va monumental bezak haykaltaroshligi tarqaldi (rassom F. Klue, J. Fuke, haykaltarosh J. Gujon, J. Pilon va boshqalar). Uyg'onish davriga xos xususiyatlar Ispaniya, Chexiya, Polsha va boshqa mamlakatlarda ham namoyon bo'ldi. Uyg'onish davri Yevropa mamlakatlarining madaniy va g'oyaviy hayotida katta ijobiy rol o'ynadi, bu davrda jahon madaniyatining eng nodir va bebaho asarlari yaratildi. Sharqda ham, G'arbda ham Uyg'onish davri insoniyat taraqqiyotining benazir davridir. Uyg'onish davrining ko'p g'oyalarini 18-asr ma'rifatparvarlik vakillari meros qilib oldi. Uyg'onish davri ijodkorlarining ilmiy va adabiy asarlari hozirda ham ma'naviyatimiz yuksalishiga xizmat qilib kelmoqdasr

XX asrning 50-yillari o'rtalaridan Sharq Uyg'onishiga qiziqish ortib bordi. Yaratilgan nazariyalarda Sharq va G'arb Uyg'onish davrida xronologik xulosalar oqibatida Sharq Uyg'onishi jiddiy muammolarga duch keldi. Sharq Renessansi muammolari bilan ASRMets, N.I.Konrad, V.M.Jirmunskiy, V.K.Chaloyan, Sh.I.Nutsubidze, ASRF.Losev, I.S.Braginskiy kabi xorijlik olimlar¹³ va B.Bobojonov, ASR Irisov, M. Xayrullayev, N. Ibragimov, I. Mo'minov kabi o'zbek olimlari o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shdilar.¹⁴

Sharq Uyg'onish davrini tadqiq qilgan akademik Xayrullayev M.M. uni madaniy yuksalish deb baholaydi va quyidagi belgilarini ko'rsatadi:

- dunyoviy ilmlarga intilish, din va diniy bilimlarni jamiyat, insonlar manfaati nuqtai nazaridan talqin etish;

¹³Адам Мец. Мусулманский Ренессанс. Издание 2-е., М.1973.// Н. И. Конрад, Проблемы реализма и литературы Востока,— в сб.: «Проблемы реализма в мировой литературе». М., 1959; Н. И. Конрад, Послесловие,— в кн.: «Армянский Ренессанс», 1963.// В. М. Жирмунский, Алишер Навои и проблема Ренессанса в восточных литературах,— «Ученые записки ЛГУ», серия филологическая, 1961. вып. 59, № 299

¹⁴Бабаджанов Б. Из истории Кубравийского братства в эухаре. // Узбекистан - вклад в цивилизацию. Бухара и мировая культура. Вып. 3 Ч. 1. -Бухара, 1995. // Irisov A., AbuAliibnSino, T., 1980 // Xayrullayev M. M., O'rta Osiyoda ilku yugonish davri madaniyati, T., 1994 // Xayrullayev M. M., Uyg'onish davri va Shark mutafakkiri, T., 1971 // Mo'minov I. M., O'zbekistonda gitabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar. T., 1999

- turli xalqlarning ma'naviy-madaniy merosi, o'tmish madaniy qadriyatlaridan (arab, eron, yunon madaniyati boyliklari) foydalanish;

- tabiatni, mavjud hayotni, mavjudotni o'rganishga qiziqishning kuchayishi, uning sirlarini ochishga va undan foydalanishga intilishning ortib borishi, shu munosabat bilan tabiatshunoslik ilmlarining rivojlanishi;

- bilishda aqlni mezon deb bilish, aqliy bilish, ratsionalistik usul, ilmiylik rolining oshib borishi;

- insonga muhabbat, uning axloqiy, aqliy xislatlarini, qobiliyatlarini o'rganish va fazilatlarini ochib berishga intilish, mantiq ilmiga katta e'tibor berish, komil insonni tarbiyalash, etuk fozil jamoa haqidagi fikrlarni asoslab berish;

- diniy tasavvur, diniy ta'limotlar rivojida diniy-axloqiy mavzuning ustunligi, inson hulqi, manfaatlarining diniy g'oyalarda etakchi mavzuga aylanishi, ichki ma'naviy kamolot, Olohga sub'ektiv ichki mukammallashuv, ma'naviy-ruhiy ko'tarilish, yuksalish yordamida erishuv va uning sifatlariga muyassar bo'lishga qaratilgan faoliyat;

- og'zaki va yozma so'zga katta e'tibor, uning ijtimoiy-axloqiy qudratini kuylash, ta'riflash, she'riyat, filologiya, badiiy madaniyatning yuksak rivoji, so'z san'ati, ritorika bilan shug'ullanish madaniylikning muhim belgisiga aylanib qolishi.¹⁵

Darhaqiqat, qadimgi yunon mutafakkirlarining ta'limotlari Sharqda falsafa va boshqa fanlarning rivojlanishida turtki bo'ldi. Platonning ilmiy merosi, Aristotel falsafasining tasavvufiy va ideallik tomoni sharq olimlarini ilhomlantirdi. Bu esa, uzoq vaqt davomida yunon mutafakkirlarining asarlarini o'rganish va tarjima qilinishiga olib keldi. Shuning uchun IX-XV asrlar sharq mutafakkirlarining dunyoqarashida yunon falsafasi, adabiyoti va san'atidagi rahnamolikni ko'ramiz. Ummaviylar sulolasi davrida dastlabki asarlarni tarjima qilish yo'lga qo'yilgan bo'lsa, Abbosiy xalifa al-Mansur (754-775-y) davridan tarjimonlik davlat tomonidan e'tirof etila boshlandi. Dastlabki tarjima qo'lyozmalar qadimgi yunon

¹⁵Xayrullayev M.M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. T., 1994, 71-72 betlar

tabib va astronomlarning asarlaridan iborat bo'lsa, IX asr o'rtalaridan boshlab qadimgi yahudiy va fors olimlari asarlarining tarjimalarini uchratamiz.

IX asrdan musulmon olamida kutubxonalar bilan bir vaqtda “donishmandlik uyi” lari tashkil etish odat tusiga kirdi. Aksariyat hollarda davlat amaldorlari o'z uylarida bunday ilm maskanini tashkil etishib, o'zlari ham ma'lum ilm sohasi bilan shug'ullanishgan. Adam Mtsning qayd etishicha, donishmandlik uylarida kelib kitob o'quvchi yoki ijod bilan shug'ullanuvchi kishilar uchun barcha imkoniyatlar yaratilib, ularga stipendiya berib borilgan.¹⁶ Shunday donishmandlik uylarining eng yirigi IX asrda Bog'dodda xalifa Ma'mun tomonidan tashkil etilgan. “Bayt-ul-Hikma” (“Donishmandlar uyi”) nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu ilm dargohi Sharqning eng yirik fanlar Akademiyasi bo'lib, uning qoshida “Xazinat al-Hikma” nomi bilan ataluvchi yirik kutubxona faoliyat yuritgan. Akademiyada Pifagor, Platon, Aristotel, Arximed, Galen, Gippokrat va Evklid kabi yunon faylasuflarining asarlari, shuningdek qadimgi hind olimlarining astronomiya, matematika, tibbiyot, alkimyo va falsafaga oid kitoblari arab tiliga tarjima qilingan, hamda ularga sharhlar yozilib ilmiy tadqiqot olib borilgan. Akademiyada xalifalikning turli hududlaridan mutafakkirlar kelib faoliyat ko'rsatishgan. Xalifa Ma'munning taklifiga ko'ra ko'plab Eron va Markaziy Osiyolik olimlar Bog'dodda faoliyat ko'rsatishgan. Tadqiqotchi F. Sulaymonova ASR Axmedov va H. Zuter asarlariga tayangan holda Bog'doddagi olimlarning ko'pchiligi Xuroson, Movarounnahr, Baqtriya, Farg'ona, Xorazmliklardan iboratligini ta'kidlaydi.¹⁷ Ular orasida Al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Ibn Turk, al-Javhariy, al-Marvaziy va al-Qindi kabi buyuk mutafakkirlarning nomlari bor.

Bog'doddagi “Donishmandlar uyi” dan qolishmaydigan ilm maskani XI asr boshlarida Xorazmda xorazmshoh Ma'mun tomonidan tashkil etilgan. Bu davrda Xorazm yirik ilmiy markazlardan bo'lib, xorazmshohlar ilm ahliga sharoitlar yaratib berishgan edi. Jahon ilm- faniga Xorazm Ma'mun Akademiyasi nomi bilan mashhur bo'lgan bu ilm dargohida o'z davrining buyuk daholari Ibn Sino, Abu

¹⁶ Мец А. Мусулманский ренессанс, ст.147

¹⁷ Sulaymonova F., SharqvaG'arb. (Qadimiy davr va o'rta asrlar madaniy aloqalari). T.: 1997., 192-bet

Rayhon Beruniy, Abu Nasr ibn Irok, atoqli tabib va faylasuflar Abu Saxl Masihiy, Abu-l-Xayr Hammor va boshqa olimlar ijod qilishgan. Xorazmdagi Ma'mun akademiyasi o'zining qisqa faoliyati davomida ko'plab ilmiy yutuqlarga sababchi bo'ldi va jahon ilmiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ibn Sino Akademiyada asosan matematika va astronomiya sohasi bilan, Beruniy astronomiya, geografiya va tarix sohalari bilan, Masihiy tibbiyot bilan shug'ullanishdi, shuningdek ko'plab ilmiy munozaralar olib borishdi.¹⁸

Musulmon dunyosida sodir bo'lgan yuksalishda IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo ya'ni Movarounnahr hududida yetishib chiqqan mutafakkirlarning o'rni beqiyosdir. Bugungi kunda bir qator tadqiqotchi va tarixchi olimlarning asarlaridan Markaziy Osiyo xalqlarining nihoyatda boy va o'ziga xos madaniyatining guvohi bo'lamiz. Arablar bosqiniga qadar Markaziy Osiyo xalqlari qadim zamonlardan iqtisodiy va madaniy aloqalarda tinch-totuv yashab kelishgan. Ular vodiy va dashtliklarda yashab, o'ziga xos eng qadimgi madaniyatlardan birini yaratishdi. Ushbu madaniyat Markaziy Osiyo xalqlarining diniy qarashlari, urf-odat va marosimlari, hamda axloqiy me'yorlarining umumiyligida ko'zga tashlanadi. Qadimgi sak, massaget qabilalari, hamda Qadimgi Baqtriya, Xorazm, So'g'd, Farg'ona va Marg'iyona kabi davlatlar madaniy izlarining O'rta Osiyoda mavjudligi ham ushbu xalqlarning yuksak madaniyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Bu madaniyat qadimgi Mesopotamiya, Eron, Hind va Xitoy sivilizatsiyalaridan qolishmay, G'arb va Sharq davlatlari orasida savdo, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning almashinuvida ham o'ziga xos chorraha vazifasini o'tadi.

Ko'plab tadqiqotchilar Markaziy Osiyo tarixidagi ilmiy yuksalishni ikki bosqichga (ularning asarlarida Sharq Uy'g'onishi sifatida talqin qilinadi) bo'lishadi: 1-bosqich, (IX-XII asrlar) al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Beruniy, Forobiy, Rudakiy, Firdavsiy, Ibn Sino kabi qomusiy olimlar, shuningdek, yangi so'fizm yo'nalishini ochib bergan Ahmad Yassaviy, mashhur adabiyotshunos Mahmud

¹⁸Иса Джаббаров Древний Хорезм – страна высокой культуры и уникальной духовности (Этно-исторические очерки). М.: ИЭАРАН, 2014. 304 с.

Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy va boshqa allomalar yashagan davr bo'lsa, 2-bosqich, (XIV-XV asrlar) Amir Temur va Temuriylar davrida ilmfanning taraqqiy topgan davri ya'ni buyuk astronom Ulug'bek, mashhur olimlar Koshiy, Ali Qushchi, shoir va faylasuf Jomiy, Navoiy, rassom Kamoliddin Bekzod, tarixchi Xondamir va boshqalar yashagan davrlardir.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda sodir bo'lgan ilmiy yuksalishga jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida katta yutuqlarga erishildi. Ushbu davrga adabiyot, tibbiyot, falsafa, san'at va siyosiy fanlar sohasida yangi ijod qirralari yaratildi. Bugungi kunimizgacha ilmiy jasorat ko'rsatib butun insoniyatni lol qoldirgan Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muso al-Xorazmiy kabi qomusiy allomalarning ilmiy kashfiyotlari milliy madaniyatimizning g'ururi bo'lib kelmoqdasr Ular o'zlarining falsafiy va ilmiy qarashlari orqali insoniyat ongida ijodiy to'ntarish qilishdi.

X-XI asrda badiiy adabiyot, huquqshunoslik, filologiya, tarix va geografiya kabi fanlar o'zining ilmiy nazariya va uslubiga ega bo'lib, ixtisoslasha boshladi. Ushbu fanlar olimlar tomonidan ilmiy xulosalar bilan to'ldirib borildi. Birgina huquq sohasi islom huquqshunosligi va huquq fani bilan shug'ullanuvchi olimlarga bo'lindi. Huquqshunoslik fanining muhim ahamiyat kasb eta boshlashi olimlar o'rtasida muhim vazifalarni qo'ydi. Ulamolar fan nazariyasini yaratish bilan birga, islomgacha bo'lgan davrning huquq sohasini, hamda qadimgi yunon-rim uyg'onish davrining huquqshunoslik sohasini tadqiq qilish bilan ham shug'ullanishdi.¹⁹

IX-XII asrlarda Movarounnahr aholisining tarkibida o'zgarish sodir bo'lib, ushbu hududda turkiy xalqlardan tashqari xitoy, eron, hind, tibet, arab va boshqa xalqlar yashagan. Ularning ma'daviy hayoti, ijtimoiy kelib chiqishi, tili va dini birbiridan farq qilgan. Shuning uchun ushbu davr madaniyati arab, fors va turk tilida yaratildi. Movarounnahr ma'naviy hayotida ushbu uch tilni bilish ilm ahli uchun ijodiy burch sanalib, ushbu tillarda bir qator olimlar tomonidan asarlar yaratildi. Masalan, IX-XII asrlarda yashagan Abu Mansur as-Salobiy, Muhammad al-Murod, Abu Ahmad al-Kotib, Rashiddin Muhammad Vatvat, Haydar al-Xo'jandiy kabi

¹⁹ Мец А. Мусулманский ренессанс, ст.179

olimlar arab tilida, Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Kaykovus, Umar Xayyom, Nosir Xusrav kabi olimlar fors tilida, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yassaviy, Mahmud Qoshg'ariy, Sulaymon Baqirg'ani kabi olimlar turk tilida ijod qilishdi.

X asr o'rtalariga qadar Movarounnahrda davlat muassasalari xodimlari arab tili va yozuvida faoliyat olib borishgan. Somoniylar boshqaruvining dastlabki davrlaridan rasman fors yozuvi joriy etilib, uning qo'lyozmalari bizgacha saqlanib qolgan.²⁰ Yangi yozuvning joriy etilishiga sabab, Somoniylar hukmdorlar boshqaruvning dastlabki paytlaridan madaniy qadriyatlar va ilm-fan sohalarining rivojlanishiga alohida e'tibor berishdi. Davlat hukumati ushbu sohalarni rivojlantirmay turib, to'la mustaqillikni tiklab bo'lmasligini tushunardi. Shuning uchun davlat hokimiyati badiiy ijod ahliga arab tilini ta'qiqlab, xalqqa tushunarli tilda ijod qilishni joriy qildi. Mamlakatda joriy etilgan yangi fors tili so'g'd va xorazm kabi mahalliy tillarni Movarounnahrda surib chiqarib, O'rta Osiyo va Eronda yangi fors tilining tarqalishiga olib keldi.²¹ Ammo, arab tili va yozuvi uzoq vaqt mobaynida ilmiy ijod tili sifatida Movarounnahr hayotida o'z nufuzini saqlab qoldi. Bu haqda tarixchi fon Gryunebaum, Markaziy Osiyoda diniy kitoblarning arab tilida o'qilishi, falsafa va boshqa fanlar nazariyalarining arab tilida yaratilishi, shuningdek xalqaro diplomatik aloqalarning ushbu tilda olib borilishi sababli Markaziy Osiyoda arab tili uzoq vaqt ilmiy-ijod tili sifatida nufuzini saqlab qolganligini ta'kidlaydi.²²

IX-XII asrlarda Muvarounnahrda arxitektura sohasi nihoyatda taraqqiy etdi. Muvarounnahr ma'naviy hayotida barcha sohalarining bir-biriga g'oyaviy qo'shilishi arxitektura sohasini ham chetlab o'tmadi. VIII asrdan boshlab musulmon olamida arxitektura sohasida xalqlarning qadimiy an'analari va shaharsozlik sohalar aks ettirilib, yirik davlatlarning qurilish sohalarida yangi uslublarni vujudga keltirdi (Eron, Vizantiya, Suriya, Misr, Hindiston). Qurilishda dastlab Vizantiya, keyinchalik xalifa Muta'sim davridan fors sosoniylarining

²⁰ Б.В.Хасанов, Э.К.Арифджанов, Ш.К.Алимов, Б.А.Ирмухамедов.История Узбекистана. Курс лекции. Част 1. Т., 2003. ст.111.

²¹ А.М.Беленицкий, И.Б.Бентович, О.Г.Большаков. Средневековый город Средней Азии. Л. 1973. ст. 133

²² фон Грюнебаум Г.Э. Классический ислам. Очерк истории (600-1258). Пер. с англ. - М.: Наука. Главная редакция восточной литературы изд-ва "Наука", 1986. ст.103

qurilish uslublari shahar va obidalar qurilishida namoyon bo'ldi.²³IX-XI asrlarda arxitektura sohasida o'ziga xos uslub bilan taraqqiy etgan mintaqalar Movarounnahr sanaladi. Ushbu uslubning yorqin namunasi Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasidir. Qadimiy sug'd me'morchiligi an'analarini o'ziga mujassam etgan maqbara O'rta Osiyo me'morligi va san'ati tarixidagi dastlabki maqbaralardan biri hisoblanadi. Maqbara qurilishida arablargacha bo'lgan Markaziy Osiyo arxitekturasining qurilish texnikasi va badiiy uslublaridan foydalanilgan. Maqbara qadimgi davr Markaziy Osiyo me'morchiligini yakunlab, o'rta asrlar me'morchiligining o'ziga xos usullarini namoyon etadi.²⁴

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, IX-XII asrlar Sharq va Markaziy Osiyoda sodir bo'lgan ma'naviy yuksalish butun dunyo sivilizatsiyasiga poydevor bo'la oldi. Ushbu davrda rivojlangan falsafa, adabiyot, matematika, fizika, tibbiyot, geografiya va boshqa sohalar keyingi avlodga ma'naviy ihom baxsh etdi. Antik yunon merosini o'rganish bilan boshlangan ushbu yuksalish, keyinchalik boyitildi va notog'ri xulosalari aniq qilib tadqiq qilindi. Ushbu ilmiy kashfiyotlar G'arb mamlakatlarining (XIV-XVI) keyingi ilmiy yuksalishiga bevosita ta'sir etdi.

²³ Зарринкуб. Исламская цивилизация. Пер. М. Махшулов. — М.: «Андалус», 2004. ст.146.

²⁴ Б.Н.Засыпкин. Архитектура Средней Азии. М.1948., ст. 38

1.2 Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi.

X-XI asrlarda yashab ijod qilgan O'rta Osiyolik qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi dunyo fanida muhim ahamiyatga ega. O'z davrida muhim sohalar bilan shug'ullanib qimmatli asarlar qoldirgan Beruniyning ilmiy g'oyalari va falsafiy qarashlari bugungi kunda zamonaviy fanlarning kashf etilishiga asos bo'lmoqda. Beruniyning shaxsi, uning ilmiy merosiga qiziqish XIX asr oxirida boshlandi.

XIX asrning ikkinchi yarmida sharqshunos E. Sachau Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" va "Hindiston" asarlarini nemis tiliga tarjima qildi.²⁵ Natijada Yevropa sharqshunosligida Beruniy merosiga bo'lgan qiziqish sodir bo'ldi. Dastlab Beruniy haqida uning zamondoshi Abulfazl Bayhaqiy "Tarixi Mas'udiy" asarida ma'lumot berib o'tadi.²⁶ Keyinchalik Yaqut al-Hamaviy, ibn Abu Usaybiya, Muhammad al-Gadanfar at-Tabriziy, Nizomi Aruzi Samarqandiy kabi tarixchi va geograf olimlar ham ma'lumot berishdi. XX asrning 30 - 40 - yillarida yurtimizning qadimiy sivilizatsiyasi hisoblangan Xorazmni o'rganishga doir arxeologik va etnografik ekspeditsiya olib borildi. Ekspeditsiya rahbari akademik S.P.Tolstov va boshqa sharqshunos olimlar Xorazmning qadimiy o'choqlaridan topilgan noyob yodgorliklarni aniqlashda Beruniy merosiga murojaat qilishdi. Keyinchalik boshqa arxeologlar, lingvistlar va bir qator sharqshunoslar o'zlarining tekshiruvlarida Beruniy merosiga murojaat qilisha boshlashdi.

Turkistonlik ulug' alloma abu Rayhon Beruniy ota-onasidan juda yosh yetim qolgan va Iroqiylar xonadonida tarbiyalangan. Iroqiylarning oxirgi vakili Xorazmshoh, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Iroq hisoblanadi. Xorazmshohning jiyani — amakisining o'g'li Abu Nasr Mansur ibn Iroq Beruniyning ustози edi. Beruniy juda yoshligidan ilm va fanga qiziqadi. U sevgan fanlar —

²⁵Sachau, Dr. Edward C. (1910), ALBERUNI'S INDIA – An account of ... India about A.D. 1030, Kegan Paul, Trench Trubner & Co.Ltd., London. // Alberuni's India : an account of the religion, philosophy, literature, geography, chronology, astronomy, customs, laws and astrology of India about A. D. 1030. T. 2 / an english edition, with notes and indices by Dr. Edward C. Sachau. 1879.

²⁶

astronomiya, matematika, geodeziya, geografiya va mineralogiya edi. U o'zining „Geodeziya“ asarida 990-yil Kat shahrining geografik kengligini aniqlaganini yozadi. Ma'lumki, geografik kenglikni aniqlash uchun geografiya, matematika va astronomiyadan yetarlicha bilimga ega bo'lish lozim. 995-yil Katni, Xorazmning ikkinchi poytaxti, Gurganj (Urganch)ning amiri Ma'mun ibn Muhammad bosib oladi. Beruniy Iroqiylar xonadoniga mansubligi uchun Ma'munning g'azabidan qochib, Ray shahriga (hozirgi Tehron yaqinida) keladi. U Rayda mashhur olim — matematik va astronom al-Xo'jandiy, tabib va faylasuf ar-Roziylar bilan tanishadi. Beruniy Rayda o'zining „Al-Faxriy sekstanti“ risolasini yozadi. 997-yil Beruniy Katga qaytdi. Bu davrda Xorazmda o'zgarishlar bo'lib, Ma'mun vafot etib, uning o'rniga Ali ibn Ma'mun taxtga chiqqan edi. 998-yil Beruniy Jurjonga keldi. U Jurjonda 1004-yilgacha yashaydi. O'zining o'n beshga yaqin asarini shu yerda yaratdi. Jumladan, olimning „Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar“ asari 1000-yil atrofida shu yerda yozilgan. 1004-yilning bahorida Beruniy Xorazmga qaytdi. Bu vaqtda Xorazmning poytaxti Gurganj edi. Gurganjda u Oy tutilishini kuzatdi. Saroyda al-Masihiy, tabib al-Hammar, Ibn Iroq va boshqalar ishlar edilar. 1005-yil bahorida buxorolik mashhur tabib Abu Ali Ibn Sino ham Gurganjga keladi. Gurganjda Beruniy matematika, astronomiya bilan bir qatorda fizika va mineralogiyaning ba'zi masalalari bilan shug'ullandi. Minerallarni aniqlash, ularni tizimga solishda solishtirma og'irliklardan foydalanish g'oyasi ham mana shu yerda tug'ildi. 1017-yil yozida Mahmud G'aznaviyning buyrug'iga ko'ra Beruniy asir sifatida G'aznaga olib ketildi. U yerda og'ir sharoitda yashadi. 1019-yildan keyin ilmiy ish bilan shug'ullanish sharoitiga erishdi. 1022—1024-yillarda Mahmud Hindistonga qilgan yurushida Beruniyni o'zi bilan olib ketdi. Safarda ham Beruniy ilm bilan shug'ullandi. U Panjobdagi Nandna qal'asi yonida yer shari meridianini bir gradusining uzunligini o'lchadi va u 110,895 km. ekanini aniqladi. Bu ma'lumot hozirgi zamon o'lchashlari natijasi — 111,1 km bilan taqqoslansa, Beruniy o'lchashlarining aniqligi qay darajada ekani ko'rinadi.

U Hindistonda bo'lajak asari „Hindiston tarixi“ uchun ma'lumot yig'di va uni 1030-yil yozib tugatdi. O'sha yili Mahmud vafot etdi va uning o'rniga o'g'li Mas'ud taxtga chiqdi. Mas'ud Beruniyga ko'p iltifotlar ko'rsatdi. Shu sababli, Beruniy o'zining shoh asarini Mas'udga bag'ishlab „Qonuni Mas'udiy“ deb atadi. Bu asar asosan astronomiyaga oid bo'lsa ham Beruniyning matematikaga oid, ya'ni trigonometriya va sferik trigonometriyada qilgan anchagina kashfiyotlari shu asarda bayon etilgan. Beruniyning matematikaga va fanning boshqa sohalariga qo'shgan hissasini yozib qoldirgan 100 dan ortiq asaridan ham ko'rish mumkin. Ulardan eng yiriklari — „Hindiston“, „Yodgorliklar“, „Qonuni Mas'udiy“, „Geodeziya“, „Mineralogiya“ va „Astronomiya“. Qolganlarini quyidagicha taqsimlash mumkin: matematikaga doirlari — 22 ta; astronomik asboblari haqida — 10 ta; astrologiklari — 21 ta; turli fanlar (fizika, mineralogiya, adabiyot, tarix va boshqalar) — 38 ta; turli tillardan tarjima asarlar — 21 ta. Beruniyning bu asarlaridan atigi 30 ga yaqini bizning kunlarga yetib kelgan. Beruniy yoshligidayoq ko'p vaqtini turli kuzatishlar bilan o'tkazgan. U bolali astronomik asbob yasagan. Xorazmning turli joylari koordinatalarini aniqlash bilan shug'ullangan va 995—996-yillarda Kat shahrida diametri 15 ziro' (Ziro' — qadimgi o'lchov birligi, 49 santimetr chamasida) bo'lgan doira va boshqa asboblari bilan astronomik o'lchash ishlarini olib borgan. Beruniyning 152 asari ma'lum bo'lib, bizgacha uning faqat 30 tasi yetib kelgan. Jami asarlarining 70 tasi astronomiyaga, 20 tasi matematikaga, 12 tasi geografiya va geodeziyaga, 4 tasi mineralogiyaga, 1 tasi fizikaga, 1 tasi dorishunoslikka, 15 tasi tarix va etnografiyaga, 4 tasi falsafaga, 18 tasi adabiyotga bag'ishlangan. U 50 yoshida qadimiysanskrit tilini o'rgandi, bundan tashqari, fors, arab, yahudiy, grek tillarini ham bilar edi.

Beruniyning boy ilmiy merosi hali to'la o'rganilmagan. Beruniy yirik olim Abu Nosir ibn Iroqdan Evklid geometriyasi, Ptolemeyning astronomik ta'limotlari bo'yicha dars olgan. 995-yilgacha u astronomiya, geografiya, geodeziya amaliy masalalarini hal etish bilan birga Yer va osmon globusini yasadi hamda astronomiyaga oid bir necha kitoblari yozdi. Olimning ana shunday asarlaridan biri

„Geodeziya“ 1025-yilda yozib tugatilgan. Bu asar „shaharlar orasidagi masofalarni aniqlash uchun joylarning chegaralarini belgilash“ga doir. Kitobning 4-bobi oxirida Beruniy Yer aylanasi kattaligini o'lchash haqida fikr yuritgan. Qadimdan insonlar Yerning shakli va kattaligini bilishga qiziqqanlar va turli xalqlar Yer shaklini turlicha tasavvur qilishgan.

Miloddan avval o'tgan Pifagor, Arastu, Arximed, Eratosfen kabi buyuk olimlar Yer dumaloq va shar shaklida degan fikrni aytganlar. Jumladan, miloddan avvalgi 250-yilda iskandariyalik olim Eratosfen Yer shar shaklida deb, uning o'lchamlarini quyidagicha aniqlagan. Iskandariya bilan Siyenya (hozirgi Asvon) shaharlari orasidagi masofani karvonlarning yurish muddati bilan o'lchaydi, keyin bu qiymatni ikki shahar kengligining ayirmasiga bo'ladi va Yer radiusini 6840 kilometr deb chiqaradi. Bu gradus meridian yoyining uzunligi esa 119,444 bo'ladi yoki meridian yoyining uzunligi 70 121 ga tengligini aniqlab, bu yoy meridian aylanasi uzunligining 1/50 qismi ekanligini hisoblagan. Yer meridian aylanasi uzunligi 39500 kilometrga yaqin bo'lsa kerak, degan fikrga kelgan. Eratosfendan so'ng Misr, Xitoy va yunon olimlaridan bir qanchasi Eratosfen o'lchagan usul bilan Yerning kattaligini aniqlaganlar. O'rta asrlarda Yerning hajmini aniqlashda yurtimizdan yetishib chiqqan olimlarning xizmatlari katta bo'lgan. Muso Muhammad al-Xorazmiy bir gradus meridian yoyning uzunligi 111,8 kilometrga tengligini isbotlab bergan.

Bag'dodda tashkil topgan „Donishmandlik uyi“ nomli o'sha davrning fanlar akademiyasida O'rta Osiyolik olimlardan Xorazmiy, Farg'oniy, Habash Xasib, Marvaridiy kabi olimlar turli sohalarda ish olib borganlar. Beruniy ham shu „Donishmandlik uyi“ning a'zosi bo'lib, u yerda 7 yil ishlagan. Uning yozishicha, xalifa Ma'mun buyrug'iga binoan „Donishmandlik uyi“ning olimlari ikki guruhga bo'linib, Iroqning Mosul shahri g'arbidagi Sanjar sahrosida gradus o'lchash usuli asosida Yer kattaligini aniqlashga kirishishgan, bunda Xolid al-Marvaridiy bir guruhga, Abu ibn Iso as Asturlobiy ikkinchi guruhga rahbarlik qilgan. Har qaysi guruh o'zi o'lchab topgan natijalar bo'yicha bir gradus meridian yoyning

uzunligini hisoblagan. Birinchi guruhdagilarning hisoblashicha, bir gradus meridian yoyning uzunligi 111,815 kilometrga teng chiqqan, ikkinchi guruh topgan qiymat 1315 metr kam bo'lgan. Beruniy natijalar o'rtasidagi bu tafovutning sababi ikki xil o'lchashda, deydi va o'zi bu natijalarni tekshirib ko'rishga qiziqib, gradus o'lchash ishlarini olib bormoqchi bo'ladi. Buning uchun u Dehiston dashtini (Kaspiy dengizining janubi-sharqiy qismi) tanlagan, lekin yordamchisi va yetarli mablag'i yo'qligi uchun bu ishni amalga oshira olmagan. Yer o'lchamini gradus o'lchovi usuli bilan aniqlash uchun ma'lum kenglikda tekis joy kerak bo'ladi va bu yerda bir necha o'n kilometr aniq o'lchanishi lozim. Bu ish ko'p vaqt, katta mablag' va puxta tayyorgarlik talab qilardi. Bu haqda Beruniy: „Yer aylanasi uzunligini sahroni kezib yurmasdan quyidagicha aniqlash mumkin. Buning uchun dengiz sohilidagi yoki tekis joyda qad ko'tarib turgan baland toqqa ko'tarilib quyosh chiqishi yoki botishi oldidan quyosh gardishining yarmi ufq orasida bo'lgan vaqtda doirali armillyar asbob bilan uning pasayish burchagi o'lchanadi“ deydi. Ufq pasayishini o'lchash usulini chizma va formulalar yordamida tushuntiradi. Bunda, tog' tepasida quyosh chiqishi yoki botishiga qarab ko'rish nurining tog' tepasidan o'tgan gorizont chiziq bilan hosil qilgan burchak o'lchanadi.

Abu Rayhon Beruniy Yerning kattaligini o'lchashda yangi usul qo'llab, bir gradus meridian yoyning uzunligi 111,16 kilometr ekanligini hisoblab chiqargan. Beruniy Yerning radiusini o'sha davr uchun aniq o'lchab bergan. U Yerning meridian aylanasi uzunligini 40183 kilometr ekanligini hisoblab chiqargan. Sulton Mahmud G'aznaviy Hindistonga qilgan safarining birida Beruniyni ham birga olib ketadi, yo'lda sharqiy Pokistonning Mo'ltan shahrida vaqtincha istiqomat qilishga to'g'ri keladi. U o'zga yurtda bo'lishiga qaramay, fursatdan foydalangan holda Mo'ltondan 400 kilometr g'arbdagi Nandna qo'rg'onida Yer kurrasi o'lchamini aniqlashga kirishadi, avval shu joyning geografik kengligini o'lchab 320001 ga teng ekanligini aniqlaydi. So'ngra ufqning pasayish burchagini o'lchaydi. Bu haqda olimning o'zi quyidagicha yozadi: „Hindiston yeridagi Nandna qo'rg'onida istiqomat qilishimga to'g'ri keldi. Qo'rg'onning g'arb tomonida baland tog', janubiy tomonida esa keng sahroni ko'rdim va shu on (ufq pasayishini o'lchash

usulini) sinab ko‘rishga kirishdim. Tog‘ tepasidan turib yerning lojuvard rangdagi osmon bilan tutashganini yaqqol ko‘rdim. Qarash chizig‘i vertikalga perpendikulyar bo‘lgan chiziqdan 00 341 pasaydi. Perpendikulyar bo‘lgan tog‘ balandligini o‘lchadim, u shu yerda qo‘llanadigan o‘lchovda 652,055 cho‘zim (gaz)ga teng keldi“.

Beruniy o‘lchab topgan qiymatlar bo‘yicha o‘ziga xos usul bilan Yer kurrasi radiusining uzunligi 12803337,036 gazga teng ekanligini hisoblab chiqardi. Agar bir gaz 0,4933 metr ekanligini e‘tiborga olsak, Yer kurrasi radiusi uzunligi, Beruniy hisobicha, 6315,886 kilometr bo‘ladi. Bu raqam hozirgi vaqt—da olingan qiymatdan juda kam farq qiladi, ya’ni xatolik radius uzunligining 0,9 foizini tashkil etadi. So‘ngra Beruniy shu 320 001 kenglikdagi bir gradus meridian yoyning uzunligi 223550,329 gaz yoki 110,277 kilometr ekanini hisoblab chiqadi. Bu raqamni hozirgi davrda aniqlangan bir gradus yoyning qiymati 110,885 kilometr bilan taqqoslasak, bundan ming yil ilgari Beruniy bir gradus yoy uzunligini hisoblashda atigi 618 metr xato qilganligi ma’lum bo‘ladi. Yer aylanasing uzunligini aniqlash, Beruniy aytganidek, sahrolarni kezib 10 yoy uzunligini aniqlashga nisbatan aniq va qulay. Shu bois, u trigonometrik usullardan foydalanib, tog‘ balandligini o‘lchashda avvalgi astronomlardan ham aniqroq natijaga erishgan. Yer aylanasing uzunligini topish haqida Beruniy bunday deydi: „Yer aylanasing uzunligini topish uchun hamma hollarda ham shu topilgan topilmani, ya’ni radiusni ikkilantirib 22 ga ko‘paytir, hosil bo‘lgan ko‘paytmani 7 ga bo‘l, shunda sen o‘lchagan birliklarda Yer aylanasing uzunligi kelib chiqadi“.

Beruniy aytgan amallarni bajarganda $l=2pR$ ni aylana uzunligini hisoblash mumkin. Bunda $22/7=3,14\dots$ ni ifodalaydi. Shunday qilib, Beruniy shaxsan o‘zi bir qancha shaharlarning geografik kengliklarini hisobladi. Masalan, G‘aznaning kengligi 330 351, Kandaniki 330 551, Dumpurniki 340 201. Uning hisoblashiga ko‘ra, Buxoro shahrining kengligi 390 201 deb topilgan. Hozirgi kunda bu qiymat 390 461 dir. Demak, bu Beruniy hisobidan faqat 00 261ga farq qiladi. Xullas, buyuk bobomiz Abu Rayhon Beruniyning ilmiy va madaniy merosini o‘rganish,

uni o'quvchi va talabalarga yetkazish azaliy qadriyatlarimiz sirasiga kiradi. Abu Rayxon Muhammad ibn Ahmad Beruniy o'rta asrlarning buyuk qomusiy olimlaridan edi. Uning buyukligi o'sha davrning deyarli barcha fanlariga qo'shgan betakror ilmiy merosida namoyon bo'ladi. Beruniyning olimlik salohiyatiga mashhur sharqshunos olim I.Yu.Krachkovskiy „uning qiziqqon ilm sohalaridan ko'ra qiziqmagan sohalarini sanab o'tish osondir“ deb baho bergan edi. G'arb tadqiqodchilaridan M.Meyerxoff esa „Beruniy musulmon fanini namoyish etuvchi qomusiy olimlarning eng mashhuri bo'lishi kerak“ degan fikrni bildiradi.

Beruniy tibbiyotga bag'ishlangan „Saydana“ asarida mingdan ortiq dorivor moddalar nomini 30 tilda yozib chiqqan. Xorazmdagi siyosiy vaziyatni o'zgarishi natijasida Beruniy 998-yili Jo'rg'on shahriga ketishga majbur bo'ladi. U bu davrga qadar Kat va Ray shaharlarida o'zining dastlabki ilmiy izlanishlarini boshlab yuborgan edi. Jo'rg'onida kechgan yillar (998—1004-yillar) Beruniy uchun yirik izlanishlar va ijodiy kamolot davri bo'ldi. O'zining birinchi astronomik tajribalarni 16 yoshda Kot shahrida boshlagan alloma, Jo'rg'onida nafaqat astronomiya va boshqa tabiiy fanlar bilan shug'ullandi, balki tarix va din tarixi bilan ham qiziqdi. Olimning muhim asarlaridan biri „Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar“ uning Jo'rg'on saroyida xizmat qilgan davrida yaratiladi. 1000-yili tugallagan bu asar muallifning ko'p qirrali olim ekanini namoyish etdi va unga katta shuhrat keltirdi. Umuman, Beruniy Jo'rg'onida 10 dan ortiq asrlarini bitishga muyassar bo'ldi. Xorazmning yangi xukmdori Abu Abbos Ma'mun ibn Ma'mun Beruniyni o'z saroyida katta izzat-hurmat bilan qabul qiladi. Ma'mun rahnamoligida vujudga kelgan ilmiy markazda faoliyat ko'rsatish bilan birga siyosiy jarayonlarda ham Xorazmshohning yaqin maslahatchisiga aylanadi. Xorazmning Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olinishi Beruniy hayotini xavf ostiga qo'ydi. U Xorazmshoh saroyidagi aksariyat olimlar, jumladan, ustozlari Abu Nasr ibn Iroq, Abul-Xayr Hammar va boshqalar bilan birga G'azna shahriga olib ketiladi. Ma'lumki, Xorazm ilmiy mazkazidagi olimlardan faqat Ibn Sino va Abu Sahl Masihiyalar Mahmud G'aznaviy zulmidan havotirlanib, G'aznaga emas, Jo'rg'onga qarab yo'l olgan edilar. Beruniyning 1017—1048 yillarda G'aznada kechirgan hayoti moddiy

va siyosiy jihatdan mashaqqatli bo'lishiga qaramasdan, uning ilmiy faoliyati uchun mahsuldor davr bo'ldi. U Mahmud G'aznaviy saroyida kechgan dastlabki yillarda astronomiya va geodeziya masalalariga katta e'tibor berdi.

Muallifning ilmiy adabiyotlarda qisqacha „Geodeziya“ deb yuritiladigan „Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarni aniqlash“ nomli astronomiya va geografiyaga bag'ishlangan asari 1025-yilda yozib tugatildi. Beruniyning „Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar“ asari ham 1029-yilda G'aznada yoziladi. Oradan bir yil o'tgandan so'ng u o'zining „Hindiston“ nomi bilan tanilgan „Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash“ kitobini yakunlaydi. Bunda Beruniy hozirgi Amerika qit'asini mavjudligini Kolumbdan bir necha asr avval ilmiy asoslab bergan. Bu shoh asarning vujudga kelishiga Mahmud G'aznavining Hindistonga yurishlari sabab bo'ldi. Saroyning eng nufuzli astrologlaridan sanalgan Beruniy Mahmud G'aznaviy bilan Hindistonda bir muddat istiqomad qiladi va u erda sanskrit tilini mukammal egallashga muvoffaq bo'ladi. U bu til yordamida hindlarning tarixi, urf-odati madaniyati va fani bilan yaqindan tanishadi va natijada yuqoridagi asarni ta'lif etadi. 1030-yili Mahmud G'aznaviy vafot etib taxtga uning o'g'li Mas'udning o'tirishi Beruniyning ahvolini ancha yaxshilaydi. Olim o'zining astronomiyaga oid eng yirik asarini mazkur hukumdorga bag'ishlab „Mas'ud qonuni“ deb ataydi. o'rta asrning mashhur olimlaridan Yoqut Al-Xamaviyning yozishiga ko'ra, Sulton Mas'ud bu asar uchun Beruniyga bir filga ortilgan katta miqdordagi kumush tangalar hadiya etadi. Yoqut Al-Xamaviyning fikricha „Mas'ud qonuni“ kitobi matematika va astronomiya bo'yicha ungacha yozilgan barcha kitoblarning izini o'chirib yuborgan.

Olim Sulton Mas'udning o'g'li Mavdudning hukumronlik yillarida (1041—1049) o'zining „Mineralogiya“ va „Farmakognoziya“ deb atalgan ikki asarini yozadi. Ularning har biri mazkur sohalardagi betakror asarlardan bo'lib, jahon madaniyatiing noyob durdonalaridan hisoblanadi. Abu Rayxon Beruniy 1048 yili G'aznada vafot etadi. Olim yozib qoldirgan 150 ga yaqin asarlari bilan

astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, arifmetika, tabobat, farmokognoziya, tarix, filologiya va boshqa fanlarning rivojiga noyob xissa qo'sha oldi. Beruniyning betakror ijodi uning vatani O'zbekistonda alohida e'tibor qozongan.

Bugungi kunimizgacha bir qator tadqiqotchilar Beruniy merosiga doir ilmiy tadqiqotlar olib borishdi. Beruniy asarlari tadqiqotlari bilan xorijlik olimlardan E. C. Sachau, J. L. Berggren, R. R. Newton, E.S.Kennedi, M. Krause, C. Schoy, W. Klein, A.M. Belenitskiy kabi xorijlik olimlar shug'ullanishgan.²⁷ Beruniy asarlarini o'rganish va uni o'zbek tilida tarjima qilishda, A. Rasulov, S. R. Raximov, I. M. Mo'minov va boshqa olimlarning xizmati beqiyosdir.²⁸

Beruniy arab tilida ijod qilganligi sababli, keyingi avlod uchun uning asarlarini tarjima qilish birmuncha qiyinchilik tug'dirdi. Birgina Mineralogiyaga oid qo'lyozmalarida ayrim mineral atamalar noma'lumligicha qolmoqda. Bu haqda akademik Krachkovskiy arab tili Beruniy uchun ona tili bo'lmagan, shuning uchun uning asarlarining yozilish uslubi oson bo'lishi mumkin emasligini ta'kidlaydi.²⁹

Beruniyning ilmiy merosi 103 ta nomlar bilan atalib, ular 12 ta sohalarga bo'linadi, hamda astronomiya, matematika, geografiya matematikasi, astrologiya, astronomiya asboblari, xronologiya, ilmi-nujum, dinshunoslik, latifalar va boshqa sohalarni tashkil etadi.³⁰ Uning 152 asari ma'lum bo'lib, bizgacha faqat 30 tasi yetib kelgan. Jami asarlarining 70 tasi astronomiyaga, 20 tasi matematikaga, 18 tasi adabiyotga, 15 tasi tarix va etnografiyaga, 12 tasi geografiya va geodeziyaga, 4

²⁷ John Lennart Berggren. A Coincidence of Pappos'Book 8 with AlBiruni's Tahdid, in Journal for the History of Arabic Science, vol.2, no.1, 1978 ; AlBiruni on Plane Maps of the Sphere, in Journal for the History of Arabic Science, vol.6, no 1-2, 1982

²⁸ AbuRayhonBeruniy. Tanlanganasarlar, I. – Qadimgixalqlardanqolganyodgorliklar// tarjimon: A.Rasulov, izohlarI.AbdullayevvaA.Rasulov, mas'ulmuharrirlar: I.AbdullayevvaO.Fayzullayev. T.: 1968; // AbuRayhonBeruniy. Tanlangan asarlar, II – Hindiston// arab tilidan A.Rasulov, Yu.Hakimjonov, G'.Jalolov tarjimas. So'z boshi va izohlar: A.Irisov, mas'ul muharrirlar: G'.Jalolov va A.Irisov. T.: 1965 // ШариповА. ВеликиймыслительБеруни. Т., 1972 // Shermuhamedov P."Dahoning tug'ilishi yoxud Abu Rayhon Beruniy qismati". T.: 2009.// Qayumov A. Abu Rayhon Beruniy. Abu Ali ibn Sino. T.: 1987 //Obidov A. Abu Rayhon Beruniy va yangi nazariya. T.: 1991 Рахимов С.Р. Педагогические идеи Абу Али Ибн Сины. Автореф.дис.пед.наук. Т., 1964. // Беруни и гуманитарные науки //Отв. ред. И.М. Муминов. Ташкент: Фан, 1972.

²⁹Крачковский, Том IV, Издательство Академии Наук СССР., Москва-Ленинград., 1957., стр. 255.

³⁰ Vv.Aa., Wikipedia, http://en.wikipedia.org/wiki/Abū_Rayhān_al-Bīrūnī

tasi falsafaga, 4 tasi mineralogiyaga, 1 tasi fizikaga, 1 tasi dorishunoslikka bag'ishlangan.

Beruniyning ilmiy merosi orasida “Hindiston”, “Astrologiya” va “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kabi yirik asarlari mavjud. Bundan tashqari uning astronomiya va matematikaga oid “Qonuni Mas’udiy”, dori-darmonlar va giyohlarga oid “Dorishunoslik”, foydali qazilmalar, minerallar va noyob toshlarga oid “Qimmatbaho toshlar”, Mas’ud G’aznaviyning o’g’liga bag’ishlangan “Astrolyabiya”, “Mahmud G’aznaviy va uning otasi tarixi” va “Xorazm tarixi” kabi asarlari bizgacha ma’lum.

Abu Rayhon Beruniy o’z yurtida qisqa vaqt yashab, keyinchalik taqdir taqozosi bilan musofirlikda yashagan bo’lsa-da, ilm yo’lida ulkan meros qoldirdi. Yuqori davlat lavozimlarida ko’tarilgan vaqtda ham uning ilmga bo’lgan intilishi, ma’rifatni yoyishga qilgan mehnatlari bugungi kunda har bir insonga ibrat namunasi bo’ladi. Uning o’zidan qoldirgan ilmiy merosi bugungi jahon ilmida yurtimizning qadimgi tarixidan, xalqimizning madaniyati va ma’rifatidan darak beradi.

1.3. Ibn Sino tafakkuri

Sharq ma'naviy uyg'onish davrida yashagan O'rta Osiyolik qomusiy mutafakkirlardan biri Abu Ali Ibn Sinodir. G'arbda Avicenna nomi bilan mashhur bo'lgan Ibn Sino 980-yilning 18-iyunida Buxoroya qinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilib, 1037-yilning 16-avgustida Hamadonda vafot etadi. Ibn Sino dastlabki ilmlarini ustozlari Abu Abdullohdan, keyinchalik o'z davrining mashhur hakimi va faylasufi Notiliydan mantiq, handasa va falakiyot sirlarini o'rgandi. U yoshligidan musiqa, optika, kimyo, fiqh kabi fanlarni o'qidi, xususan, tabobatni sevib o'rgandi va bu ilmda tez kamol topa boshladi. Ibn Sinoning tib ilmda yuksak mahoratga erishishida buxorolik tabib Abu Mansur al-Hasan ibn Nuh al-Qumriyning xizmati katta bo'lgan.

Ibn Sinoning buyuk olim sifatida yetishida Sharq olamida yirik ilm markazlaridan bo'lgan Buxoro alohida ahamiyatga ega. O'rta va Yaqin Sharqdagi eng boy kutubxonalardan sanalgan Buxorodagi Somoniylar kutubxonasida qadimgi yunon tabib va faylasuflarining asarlaridan boshlab, X asrgacha yashagan boshqa olimlarning asarlari mavjud edi.³¹ Ibn Sino kutubxonada tinmay mutolaa bilan mashg'ul bo'ldi va o'rta asr falsafasini mustaqil o'rganishga kirishdi.³² U yunon mualliflarining, xususan, Aristotelning "Metafizika" asarini, Abu Nasr Forobiyning "Metafizika"ning maqsadlari haqida"gi kitobini mustaqil o'qib, metafizikani o'zlashtirdi.

Ibn Sino yoshligidan ilmiy ijodga qadam qo'yib, Nuh ibn Mansurga atab nafsoniy quvvatlar haqida risola, "Urjuza" tibbiy she'riy asarini, o'z qo'shnisi va do'sti Abu-l-Husayn al-Aruziyning iltimosiga binoan, ko'p fanlarni o'z ichiga olgan "Al-Hikmat al-Aruziy" ("Aruziy hikmati") asarini yozdi. Undan tashqari, boshqa bir do'sti faqih Abu Bakr al-Barqiy (yoki Baraqiy) ning iltimosiga ko'ra, 20 jildli "Al-Hosil val-Mahsul" ("Yakun va natija") qomusiy asarini hamda 2 jildli "Kitob al-bir val-ism" ("Sahovat va jinoyat kitobi")ni yozdi.

³¹ Qayumov A. Abu Rayhon Beruniy. Abu Ali Ibn Sino. T.: "Yosh gvardiya". 1987., 91-92 betlar

³² Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari: (uch jildlik saylanma). 1-jild. Tuzuvchilar: U.Karimov, H.Hikmatullayev., T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993., 4-bet

X asrning oxirida Qoraxoniylar Buxoroni zabt etgandan so'ng, Ibn Sino Xorazmga ketadi va xorazmshohlar saroyida ilmiy ijodini davom ettirdi. Ibn Sino Xorazmda yirik matematik va astronom Abu Nasr ibn Irok, atoqli tabib va faylasuflar Abu Saxl Masihiy, Abu-l-Xayr Hammor va buyuk qomusiy mutafakkir Abu Rayhon Beruniylar bilan birga ijod qildi. Xorazmda Ibn Sino asosan, matematika va astronomiya bilan shug'ullandi. Bu sohalardagi bilimlarining chuqurlashib, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida Ibn Iroq va Beruniy bilan bo'lgan ilmiy muloqotlar katta ahamiyat kasb etdi. Ibn Sinoning Aristotel ta'limoti xususida Beruniy bilan va o'zining shogirdi Baxmanyor bilan yozishmalari tarixda mashhurdir. Ibn Sino Abu Saxl Masihiyning tibbiy tajribasi va bilimlaridan ham katta saboq oldi. Xorazmshohning vaziri Abulhusayn as-Sahliy ilmlarni sevuvchi kishi bo'lganidan, Ibn Sino u bilan do'stlashib, unga atab alkimyoga oid "Risola aliksir" ("Iksir haqida risola") nomli asar yozdi.

X asrning boshlarida sulton Mahmud G'aznaviyning hujumi tufayli Ibn Sino Xorazmni ham tark etib, Niso, Obivard, Tus, Shiqqon va Xurosonning boshqa shaharlarida ko'chib yuradi va 1012-yilda Kaspiy dengizining janubiy-sharqida joylashgan Jurjon amirligiga yetib keladi. Jurjonda Ibn Sino ilmiy ijod bilan shug'ullandi va tabib sifatida faoliyat ko'rsatdi. Bu yerda u mantiq, falsafa va boshqa fanlarga oid bir nechta risola yozdi va eng muhimi "Tib qonunlari"ning dastlabki qismlarini yaratdi.³³ 1014-yilda Ibn Sino Hamadonga borib, u yerda ijodini davom ettirdi. Ibn Sino Hamadonda qator asarlar yaratdi va "Tib qonunlari"ning 1-kitobini tugatib, o'zining mashhur falsafiy qomusi — "Kitob ash-shifo" ni yozishga kirishdi. "Tib qonunlari" ning qolgan qismini ham Hamadonda yozilgan.³⁴ 1023-yilgacha Ibn Sino Hamadonda istiqomat qiladi va ayrim siyosiy sabablarga ko'ra, shu yili Isfahonga jo'nab ketadi. Umrining qolgan 14 yilini shu yerda o'tkazdi. Bu yerda ham Ibn Sino tinimsiz ilmiy ish bilan mashg'ul bo'lib, bir qancha asarlar yaratdi. Ular orasida tib, falsafa, aniq fanlar, tilshunoslik kabi

³³ Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari: (uch jildlik saylanma). 1-jild. Tuzuvchilar: U.Karimov, H.Hikmatullayev., T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993., 4-bet

³⁴ O'sha manba. O'sha bet.

fanlarga oid kitoblar bor. "Kitob ash-shifo" ning qismlari, fors tilidagi "Donishnoma" va 20 jildli "Insof-adolat kitobi" shular jumlasidan.³⁵

Ibn Sinoning ilmiy merosi falsafa, tibbiyot, matematika, falakiyot, mineralogiya, she'riyat va musiqa kabi turli fanlarni qamrab oladi. Zamondoshlari uni "Shayx ur-ra'is" ("donishmandlar sardori, allomalar boshlig'i"); "Sharaf al-mulk" ("o'lka, mamlakatning obro'si, sharafi"), "hujjat al-haqq" ("rostlikka dalil"); "Hakim al-vazir" ("donishmand, tadbirkor vazir") deb ataganlar. Jahon fani tarixida Ibn Sino qomusiy olim sifatida tan olingan, chunki u o'z davridagi mavjud fanlarning qariyb barchasi bilan shug'ullangan va ularga oid asarlar yozgan. Uning ilmiy merosida yozgan asarlari soni aniq raqamlar bilan ko'rsatilmagan bo'lsada, bir qator olimlar Ibn Sino turli sohalarga oid 456 ta asar yozganligini qayd etishadi. Bizgacha ularning 242 tasi yetib kelgan. Shulardan 80 tasi falsafa, tasavvuf va ilohiyotga, 43 tasi tibbiyotga, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi ruhshunoslikka, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 7 tasi falakiyotga, 1 tasi riyoziyotga, 1 tasi musiqaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi odob ilmiga, 4 tasi adabiyotga, 8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan yozishmalarga tegishlidir.³⁶ Ibn Sino asarlarini o'sha davrda musulmon olamining ilmiy tili bo'lgan arab tilida, ba'zilarini fors tilida yozgan. Bugungi kunda olimning 23 ta fors tilida yozgan asarlari mavjud. Ibn Sinoning ilmiy merosini shartli ravishda 4 qismga ya'ni falsafiy, tibbiy, tabiiy va adabiy sohalarga bo'lish mumkin. Shulardan aksariyatini falsafiy va tibbiy sohalarga oid asarlar tashkil etadi.

Ibn Sino o'zining ilmiy merosi bilan keyingi davr Sharq va G'arb madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Sharqda Ibn Sinodan keyin Umar Xayyom, Abu Ubayd Juzjoniy, Nasriddin Tusiy, Fariduddin Attor, Ibn Rushd, Nizomiy Ganjaviy, Faxriddin Roziy, at-Taftazoniy, Nosir Hisrav, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Ulug'bek, Bedil, Bahmanyor ibn Marzbon kabi o'rta asrlarda yashagan mutafakkir va olimlari o'z asarlarida Ibn Sino ta'limoti va ilmiy g'oyalarini davom ettirdilar. Yevropada uning asarlarini

³⁵ Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari: (uch jildlik saylanma). 1-jild. Tuzuvchilar: U.Karimov, H.Hikmatullayev., T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993., 4-bet

³⁶O'shamanba. 5-bet

mashhur faylasuf va tabiatshunos olimlaridan Jordano Bruno, Gundisvalvo, Vilgelm Overnskiy, Aleksandr Gelskiy, Albert fon Bolshtedt, Foma Akvinskiy, Rojer Bekon, Dante va boshqalar Ibn Sinoning ilgʻor fikrlaridan oʻz ijodlarida foydalandilar va uning nomini zoʻr hurmat bilan tilga oldilar.

Ibn Sino va Sharq tibbiyoti. Ibn Sino yoshligidan Gippokrat (m.a.V asr) va Galen (II asr) asarlari bilan tanishdi. Bundan tashqari oʻzigacha boʻlgan tibbiyotga oid qadimgi yunon shifokorlarning ilmiy asarlari bilan va VIII-XI asrlarda oid ayrim arab shifokorlarining asarlarini (ular qadimgi yunon mualliflarining tibbiy fikrlarida tayanib yozilgan) oʻqib chiqdi. Sharqshunos T.I. Raynovning fikricha, Ibn Sino qadimgi yunon va mesopotamiya tibbiyotiga oid asarlarni tadqiq qilib, maʼlumotlarni qulay tartibga joylashtirdi. Natijada odam tabiati, anatomiyasi va fiziologiyasi, shuningdek tanadagi kasalliklarning kelib chiqishi, ularning belgilari va davolashda tayyorlanadigan dori-darmonlar haqida ensiklopedik asar paydo boʻldi.³⁷

Ibn Sinoning tibbiyot sohasiga oid asarlaridan 30 dan ortigʻi bizgacha yetib kelgan. Ular orasida olimning “Tib qonunlari” kabi yirik asari bilan bir qatorda “al-advayat al-Qalbiya” (“Yurak dorilari”), “Urjuza fiz-t-tibb” (“Tibbiy urjuza”), “Kitob al-Kulonj” (“Kulanj haqidagi kitob”), “Dafʼ al-madorr al-kulmiya an-al abdan a-insoniya” (“Inson badaniga yetishgan barcha zararlarni yoʻqotish”), “Maqola fi-n-nabz” (“Tomir urishi haqida maqola”), “Risola fi-l-boh” (“Shahvoniy quvvat haqida risola”), “Risola fi-hifz as-sahha” (“Sogʻliqni saqlash haqida risola”), “Risola fi-l-fasd” (“Qon olish haqida risola”) kabi risolalar ham bor.³⁸ Uning “al-advayat al-Qalbiya” (“Yurak dorilari”) asari tibbiyot sohasida muhim manba sanalib, yurak-qon tomir kasalliklarini anʼanaviy davolashda qoʻllanilayotgan dorilarning tarkibiga bagʻishlangan. Bugungi kunda farmakologiya sohasida yurak xastaliklarini davolashda Ibn Sino tavsiya etgan dorilardan va usullardan foydalanilmoqda.

³⁷ Т.И.Райнов. Великие ученые Узбекистана (IX-XI вв.) Издательство Уз Фан., Т. 1943., ст. 23-24

³⁸ Qarang. Abu Ali Ibn Sino qomusiy olim. Metodik bibliografik qoʻllanma. Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi. Tuzuvchi: Ruziyeva F., T. 2004

Ibn Sino tibbiyot sohasida qilgan ishlarini o'rganish va tadqiq qilish uchun 2 ta muhim usulga e'tibor berish kerak. Birinchidan, Ibn Sino davridan so'ng tibbiyot sohasida yozilgan asarlarni o'rganib, unda Ibn Sino asarlarining (xususan, "Tib qonunlari" asarining) ta'sirini aniqlash lozim; ikkinchi usul, Ibn Sinoning tarixiy hisobot va xulosalarini bugungi tibbiyotni tashkil etishdagi vaziyatda ta'sirini aniqlash. Bugungi kunda butun dunyoda ikkinchi usuldan ko'proq foydalanilmoqda. Tadqiqotchilar Ibn Sinoning tarixiy xulosalari va tibbiyot ishlarida ko'proq murojaat qilinsa, Ta'lim muassasalarida "Tib qonunlari" asari va boshqa asarlari muhim darslik bo'lib qolmoqda.

Ibn Sinoning tibbiyot sohasida oid ilmiy merosini 2 ta muhim tarixiy-geografik davrga bo'lamiz. Bulardan birinchisi, Ibn Sinoning butun musulmon olami va Sharq mamlakatlari tibbiyotida oid ta'siri bo'lsa, ikkinchisi g'arb mamlakatlarida tibbiyot sohasining rivojlanishidagi ta'siridir. Ibn Sinoning tibbiyotga oid asarlari orasida eng yirigi "Kitob alqonun fi-t-tibb" ("Tib qonunlari") asari hisoblanadi. Asar 1013-1021-yillarda yozilgan bo'lib, 5 jildan iborat. Unda farmakologiyaga oid muhim ma'lumotlar mavjud. Asarda yurak, jigar, miya haqida umumiy tavsiflar mavjud bo'lib, kasalliklar ya'ni vabo, o'lat, zotiljam, o'pka yallig'lanishi, moxov, diabet (modda almashinuvining buzilishi), oshqozon yarasi va boshqa kasalliklar orasidagi farqlar haqida umumiy tavsif beriladi.

Bugungi kunda qadimgi va o'rta asrlarda yashagan tib olimlarining asarlari tarjima qilinib, tadqiqotlar olib borilmoqda. Bular orasida Ibn Sinoning ilmiy merosi o'zining ahamiyatini saqlab qolyapti. Uning "Tib qonunlari" asari Sharq va G'arbga mamlakatlariga o'zining o'rniga ega. Bugungi kunimizgacha ushbu asarga 200 dan ortiq sharhlar va izohlar yozilib, turli tillarda tarjima qilindi.³⁹ Bu Sharq tarixidagi tibbiyot sohasida misli ko'rilmagan statistik ma'lumot hisoblanadi.

"Tib qonunlari" da yozilgan sharhlar va izohlar, qilingan tarjimalar shuni ko'rsatadiki, asar nafaqat bugungi davrimizgacha, balki o'rta asrlarda ham tibbiyot sohasida muhim dastur bo'lib xizmat qilgan. Tadqiqotchi S.Elgood ushbu asar

³⁹8th ed. Brill Academic Publisher; 2006. A bibliography of publication on Islamic and Muslim world since 1906.

haqida musulmon olamidagi kitoblarida matnlari ko'p uchraydigan asar deb ta'rif beradi. Tadqiqotchining fikricha, asar XV-XVI asrlarda ham musulmon olamidagi muhim darslik bo'lib xizmat qilgan.

“Tib qonunlari” asari 5 jildidan iborat bo'lib, uning o'zbek va rus tillaridagi tarjimalari 1954-1931-yillar davomida Toshkentda nashr etildi. 1980-yilda Ibn Sino tavalludining 1000 yilligi munosabati bilan “Tib qonunlari” asarining ikkinchi tuzatilgan nashri e'lon qilindi.⁴⁰ Asarda turli kasalliklarning kelib chiqishi sabablari, ularni ajratish, davolash va ularga aniq tashxis qo'yish yo'llari aniq holatda ko'rsatilgan. Jumladan, asarning 1-kitobida – tibbiyotning nazariy asoslari va amaliy tibbiyotning umumiy qoidalari, odam anatomiyasi – suyak, asab, artilleriya, vena va mushaklar haqida aniq ocherk; kasalliklarning kelib chiqishi va ularning umumiy davolanish qoidalari haqida; turli yuqumli kasalliklarning kelib chiqish sabablari, to'g'ri ovqatlanish, hayotning turli davrlarida sog'liqni saqlash va gigiyenada amal qilish haqida bayon qilinadi. Asarning 2-kitobi, asosan dirishunoslik sohasida bag'ishlangan bo'lib, unda 800 ta dorivor o'simliklar, hayvon va minerallarning xususiyati, ularni davolashda qo'llanilishi haqida ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari Ibn Sino ushbu kitobda Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridan chiqarilayotgan dorivorlar haqida, shuningdek, Hindiston, Xitoy, Yunoniston, Afrika va O'rtayer dengizi orollari va boshqa mamlakatlardan olib kelinadigan dorilar haqida hamda ushbu xalqlarning tibbiyoti haqida fikr yuritadi. Asarning 3-kitobida, inson organizmidagi turli kasalliklarning kelib chiqish sabablari, uning boshlanishi va oxirgi davri haqida ma'lumotlar mavjud. Kitobda inson tanasidagi bosh, miya (shu jumladan asabiy va psixik kasalliklar), ko'z, quloq, burun, og'iz, til, tish, lab, tomoq, o'pka, yurak, ko'krak, qizilo'ngach, oshqozon, jigar, o't pufagi, ichak, buyrak va jinsiy kasalliklar haqida ma'lumotlar berib o'tiladi. 4-kitobda, inson tanasidagi “umumiy” kasalliklar haqida ma'lumotlar mavjud. Tanada uchraydigan bezgak, shish, husnbuzarlik, yara, suyaklarning sinishi va chiqishi, bosh suyagi, ko'krak,

⁴⁰ Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari: (uch jildlik saylanma). 1-jild. Tuzuvchilar: U.Karimov, H.Hikmatullayev., T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993., 7-bet

umurtqa, qo'l-oyoqlarning shikastlanishi va ularni davolash usullari haqida yo'riqlar ko'rsatilgan. Bundan tashqari kitobda surunkali va o'tkir yuqumli kasalliklar (chechak kasalligi, moxov, o'lat, qo'tirganlik) haqida ham gapirib o'tiladi. Asarning 5-kitobi dorishunoslik ilmi ya'ni farmakologiyada oid bo'lib, unda dorilarning murakkab tarkibi, ularni ishlab chiqish va qo'llash usullari haqida bayon qilinadi. Kitob 2 qismdan iborat bo'lib, 1-qismi zaharga qarshi hapdori, kukun, qaynatmna dorivorlar va malhamlarga oid bo'lsa, 2-qismi aniq kasalliklarni ya'ni bosh, ko'z, quloq, tish, tomoq, ko'krak, qorin ichi, bo'g'inlar va terini davolashda bag'ishlangan.

Ibn Sino sog'liqni saqlashda birinchi navbatda jismoniy mashqlarda, undan keyin to'g'ri ovqatlanish va to'g'ri uxlash usullariga e'tibor qaratadi. "Tib qonunlari"ning alohida bobini bola tarbiyasi va parvarishida bag'ishladi. Asarning yana bir jihati shundaki, unda mukammal tashxis qo'yish usullari haqida gapirib o'tilgan. Ibn Sinoning o'zi tashxis qo'yishda tomir urishi, terining namligi yoki quruqligini aniqlash orqali, siydik va ichni bo'shatishdan keyin ko'zdan kechirish kabi usullaridan foydalangan. Uning ba'zi tashhis usullari hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Ibn Sino antik olimlarning farmatsiyasi asosida musulmon Sharqida paydo bo'lgan yangi farmatsiyaning shakllanishiga yakun yasadi. Tabobatda sano, kofur (kamfara), rovoch, tamrhindiy (hind hurmosi) kabi dorilarning ishlatilishi, asal o'rnida ko'p dorilarning qand (shakar) asosida tayyorlanishi Ibn Sinoning xizmatidir. Uning dorivor o'simliklarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash usullari hozirgi dorishunoslikdagi usullarga juda yaqindir. Ibn Sino birinchilardan bo'lib kimyoviy usulda tayyorlangan dorilarni ishlatgan. Kasallikning turiga qarab avval soda, so'ng murakkab tarkibli dori bilan davolagan. Oziq-ovqatlarning shifobaxsh ta'siriga ahamiyat berib, davolashni meva, sabzavot, sut, go'sht va boshqa mahsulotlardan boshlagan. Unda bemorning yoshi, mijozi, iqlim sharoitini hisobga olgan.⁴¹ Ibn Sino farmatsiyasi juda puxta o'ylangan farmakologik tadqiqot usuliga

⁴¹Qarang. Abu Ali Ibn Sino qomusiy olim. Metodik bibliografik qo'llanma. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. Tuzuvchi: RuziyevaF., T. 2004

asoslanganligi bois o'rta asr Yevropa farmatsiyasidan ancha o'zib ketdi va zamonaviy dorishunoslikka yaqinlashdi. Olim ishlatgan dorilarning bir qanchasi hozirgi farmakopeyalardan mustahkam o'rin olgan.

Ibn Sino va G'arb tibbiyoti. Ibn Sinoning g'oyalari nafaqat Sharq mamlakatlarining, balki o'rta asrlarda Yevropaningma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. XI-XIII asrlarda uning ilmiy merosi, ayniqsa falsafa va tibbiyotga oid ko'plab asarlari G'arbiy Yevropada lotin tiliga tarjima qilindi.⁴²

Qadimgi yunon faylasuflari g'oyalarining Yevropada o'zlashtirilishi Markaziy Osiyo va Sharq mutafakkirlari g'oyalarining tushunilishi bilan bog'liq. Bu borada Ibn Sinoning asarlari ham bundan mustasno emas. Uning birgina "Tib qonunlari" asari XII asrning ikkinchi yarmida Ispaniyaning Toledo shahrida lotin tilida tarjima qilindi. Natijada Ibn Sinoning tibbiyoti, uning amaliy va nazariy tajribasi G'arb tibbiyotiga kirib bordi. Tibbiyot sohasida yuzlab ilmiy va ilmiy tadqiqot asarlari yozildi.

Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari XII asrda arab tilidan lotin tilida italiyalik olim Kremonlik Jerard tomonidan tarjima qilindi. Keyinchalik XVI asr boshida tabib va sharqshunos Andrea Alpago tomonidan Jerard tarjimasi tuzatilib qaytadan tahrir qilindi. "Tib qonunlari" asari arab tilidagi matnlari bilan Yevropada 40 marta chop etildi (Milanda 1473; Paduyada 1476; Venetsiyada 1482, 1507, 1544, 1591, 1708; Rimda 1593). XX asrning o'rtalarida asarning ivrit tilidagi tarjimasi qayta tuzatildi.

O'rta asrlarda Ibn Sinoning "Tib qonunlari" dan tashqari boshqa asarlarining ham G'arbda tarjimalari mavjud. Uning tibbiyotga oid "Al-urjuza fi al-Tibb" asari XII asrda Kremonlik Gerard tomonidan lotin tilida tarjima qilingan bo'lib, asar she'riy tarzda yozilgan va 1326 banddan iborat. XV-XVII asrlar davomida ushbu asar Yevropada 6 marta nashr etilgan. 1956-yilda asarning fransuz tilidagi tarjimasi (arab matnlari va lotin tilidagi tarjimasi bilan birga) nash qilindi. 1547-yilda Ibn Sinoning buyrak kasalliklarini davolash to'g'risidagi muhim asari Venetsiyada Andrea Alpago tomonidan lotin tiliga tarjima qilindi.

⁴² Т.И.Райнов. Великие ученые Узбекистана (IX-XI вв.) Издательство Уз Фан., Т. 1943., ст. 25

Ibn Sino tibbiyoti o'rta asrlarda yevropalik tadqiqotchilar tomonidan ko'plab tadqiq qilindi va g'arb tibbiyotiga dastlabki qadamlar qo'yila boshlandi. Jumladan, yelka suyagining chiqishini oddiy bosish bilan davolash usuli hozirgacha g'arbda ham "Avitsenna usuli" deb ataladi. Umurtqaning qiyshayishini Ibn Sino o'zi ixtiro qilgan yog'och moslama yordamida tuzatgan. Bu usulni 15-asrda fransuz tabibi Kalo qayta kashf etgan.⁴³ Suyaklarni gipslash usuli ham Ibn Sino tomonidan keng qo'llanilgan, lekin u ham keyinchalik unutilib, yevropalik tabiblar tomonidan 1852 yilda amaliyotga yangi ixtiro sifatida qaytarildi. Kasallikni davolashda Ibn Sino shaxsiy gigiyena, uyqu va jismoniy mashqlarning ahamiyati kattaligini uqtirgan. Uning bir kasallikni boshqa bir kasallikni chaqirish yo'li bilan davolash usuli diqqatga sazovordir. U tutqanoqni davolashda to'rt kunlik isitma bilan og'rishni foydali deb biladi. Avstriyalik psixiatr Yu. Vagner-Yaureg (1857-1940) shunday usulni qo'llab, zaxm kasalligini bezgakni yuqtirish orqali davolagani uchun 1927 yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

Ibn Sinoning falsafiy qarashlari. Ibn Sinoning falsafiy g'oyalari olamni tushunishda oid bo'lgan fanlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Uning falsafiy qarashlarida qadimgi yunon faylasuflari asarlarining ta'siri mavjud. Ibn Sinoning ijodida Platonning fizika-matematika fanlari doirasida qilgan ijodi, Aristotelning falsafiy, idealistik va materialistik g'oyalari, hamda, uning tabiiy va ijtimoiy fanlardagi dunyoqarashi, neoplaton falsafasining fizika-matematika (ayniqsa matematika) fanlarining g'oyalari mavjud.

Ibn Sinoning falsafiy asarlaridan biri "Kitob annajot" bo'lib, "Kitob ash-shifo" ning qisqartirilgan shaklidir. Asar jahonning bir necha tillariga tarjima qilingan. Olimning falsafiy qarashlari yana "Al-ishorat vat-tanbihot" ("Ishoralar va tanbihlar"), "Hikmat al-mashriqiyn" ("Sharqchilar falsafasi"), "Kitob al-ishorat fil mantiq val-hikmat" ("Mantiq va falsafaning ishoralari"), fors tilida yozilgan "Donishnoma" ("Bilim kitobi") va boshqa turli hajmdagi falsafiy risolalarda hamda "Tayr qissasi", "Salomon va Ibsol", "Hayy ibn Yaqzon", "Yusuf haqida qissa" kabi

⁴³https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu_Ali_ibn_Sino

falsafiy mazmunli badiiy qissalarda o'z aksini topgan. ⁴⁴Ibn Sinoning dunyoqarashi Aristotel ta'limoti va Forobiy asarlari ta'sirida shakllandi. Uning fikricha, falsafaning vazifasi mavjudotni, ya'ni barcha mavjud narsalarni, ularning kelib chiqishi, tartibi, o'zaro munosabati, bir-biriga o'tishini zaruriyat, imkoniyat, voqelik, sababiyat omillari asosida har tomonlama o'rganishdan iborat. ⁴⁵

Ibn Sino falsafasida materiya nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Unda materiyaning eng sodda bo'linmas shakli 4 unsurni ya'ni havo, olov, suv, tuproqdan iborat. Ularning turlicha o'zaro birikuvi natijasida murakkab moddiy narsalar tashkil topadi. Murakkab narsalar shaklan o'zgarishi mumkin, lekin ularning moddiy asosi bo'lgan 4 unsur yo'qolmaydi, abadiy saklanadi. Ibn Sino fikricha, avval tog'-toshlar, so'ng o'simlik, hayvonot va taraqqiyotning yakuni sifatida boshqa jonzotlardan aqli, tafakkur qilish qobiliyati va tili bilan farq qiluvchi inson vujudga kelgan. Hodisalarni chuqur bilish, fan bilan shug'ullanish insongagina xosdir. Inson bilimlari narsalarni bilish yordamida vujudga keladi. Bilish hissiy bilish va tushunchalar yordamida fikrlashdan tashkil topadi. Sezgida narsa hodisalarning ayrim, tashqi belgilari, tayin tomonlari bilinsa, aql ularning mohiyatini, ichki tomonlarini abstraksiyalashtirish va umumlashtirish yordamida bila oladi. ⁴⁶Inson aqli turli fanlarni o'rganish yordamida boyiydi, rivoj topadi. Ibn Sino tushunchasida bilimlarni chuqur o'rganish orqali Xudoni bilish mumkin degan fikr yotadi. U mavjud bilimlarni egallagan insongina haqiqiy musulmon bo'la oladi, deb tushunadi.

Ibn Sino faqatgina falsafa va tibbiyot fanlari bilan shug'ullanib qolmay, balki boshqa fanlar ya'ni astronomiya, she'riyat, musiqa, mineralogiya, matematika va tabiiy fanlar bilan ham shug'ullandi. Uning astronomiya sohasida 8 ta mustaqil risolasi mavjud. Bundan tashqari "Kitob ash-shifo" va "Donishnoma" asarlarining riyoziyot qismlarida astronomiyaga alohida boblarni ham bag'ishladi. Ibn Sino Ptolemeyning "Almagest" asarini qayta ishladi va uning asosida amaliy

⁴⁴ Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari: (uch jildlik saylanma). 1-jild. Tuzuvchilr: U.Karimov, H.Hikmatullayev., T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993., 5-bet

⁴⁵ https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu_Ali_ibn_Sino

⁴⁶ https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu_Ali_ibn_Sino

astronomiya bo'yicha qo'llanma yaratdi. Beruniy "Geodeziya" asarida bu usulning to'g'riligi haqida gapirib, uni faqat Ibn Sino nomi bilan bog'laydi. Bu usul Yevropada 500 yildan keyin (1514 y.) astronom Verner tomonidan yangidan kashf qilindi.⁴⁷

Ibn Sino mineralogiya (ma'danshunoslik) sohasida ham salmoqli ishlar qilgan. U minerallarning original tasnifini taklif etdi. Unga ko'ra, barcha ma'danlar 4 guruhga: toshlar, eriydigan jismlar (metallar), oltin-gugurtli yonuvchi birikmalar va tuzlarga bo'linadi. Bu tasnif to 19-asrgacha deyarli o'zgarishsiz saklanib keldi. Ibn Sinoning geologiya va mineralogiyaga oid fikrlari uning "al-Af'ol val-infiolot" ("Ta'sir va ta'sirlanish") asarida ham uchraydi.⁴⁸

Ibn Sino musiqa bobida Forobiy ilmiy yo'nalishini davom ettirgan yirik nazariyotchidir. Musiqa haqidagi "Javome' ilm ul-musiqiy" ("Musiqa ilmiga oid tuplam") asari "Kitob ash-shifo" ning bir qismi bo'lib, har biri bir necha bobli 6 bo'limdan iborat. "an-Najot", "Donishnoma" asarlarida musiqa haqida kichik bo'limlar mavjud, "Tib qonunlari", "Risoi al-ishq" va boshqa musiqaning ayrim masalalari haqida fikr yuritgan.

Ibn Sino boshqa tabiiy fanlar qatori kimyo bilan ham shug'ullangan va unga oid asarlar ham yozgan. Bu asarlarini u turli davrda yozgan bo'lgani uchun ularda Ibn Sinoning kimyoga bo'lgan munosabatining evolyusion o'zgarib borishi yaqqol aks etgan. Uning kimyo sohasida aytgan fikrlari o'sha davrdagi alkimyo uchun nihoyatda ilg'or edi. Ibn Sino metallar transmutatsiyasiga, ya'ni oddiy metallarni oltin va kumushga kimyoviy yo'l bilan aylantirish mumkinligiga ishongan va mutaqaddim kimyogarlarning kitoblari ta'siri ostida "Risola as-san'a il al-baraqiy" ("Bara-qiyga atab san'at (alkimyo) ga doir risola") nomli kichik asar yozgan. Lekin keyinchalik bu sohadagi urinishlarning zoye ketishiga amalda ishonch hosil qiladi va "Risola aliksir" ("Iksir haqida risola") asarida kimyoviy yo'l bilan sof oltin va kumush olish mumkinligiga shubha bildiradi. "Kitob ash-shifo" asarida esa kimyogarlarning transmutatsiya sohasidagi barcha harakatlari behuda ekanligini

⁴⁷https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu_Ali_ibn_Sino

⁴⁸O'sha manba

nazariy jihatdan isbotlashga urindi. Uning fikricha, o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan har bir metall o'zicha alohida bir modda bo'lib, kimyogarlarni o'ylagandek bir yagona metallning turi emas. U oltinning alohida bir elementligini bilmasada, uni narsalardan yasab bo'lmashligini ham anglagan edi. Olimning bu nazariy mulohazalari o'rta asr kimyosining ilmiy kimyoga o'sib o'tishida muhim rol o'ynadi.⁴⁹

Besh asrdan ortiq davr mobaynida g'arb tibbiyoti sezilarni ta'sir o'tkazgan Ibn Sinoni bugungi kunda butun insoniyat qomusiy mutafakkir sifatida tan oladi. Uning tibbiyot, aniq va tabiiy fanlar sohasida yaratgan ilmiy merosi va falsafiy qarashlari bugun nafaqat sharq mamlakatlarida, balki g'arbda ham tadqiq qilinmoqda. Tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar zamonaviy fanlarning rivojlanishida turtki bo'lyapti.

⁴⁹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu_Ali_ibn_Sino

2.1. Fransiya tadqiqotchiligida Beruniy ilmiy merosining o'rganilishi

Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosiga qiziqish, uni tadqiq qilish Yevropa mamlakatlarida XIX asrning o'rtalarida boshlandi. Bugungi kunimizgacha olimning farmakologiya, astronomiya, astrologiya, mineralogiya, geodeziya, etnografiya, matematika, fizika, geografiya va tibbiyot sohasida oid asarlari dunyoning bir necha tillarida tarjima qilindi. Yevropa mamlakatlarining tadqiqotchiligida Beruniy ilmiy merosida oid ko'plab tadqiqotlarni ko'rishimiz mumkin. Ushbu ilmiy tadqiqotlar XII asrdan Yevropa mamlakatlarida tarjima qilinishidan boshlangan bo'lsa, XXI asrda ham davom etmoqda. Beruniy merosiga oid tadqiqotlarning aksariyati XX asrning ikkinchi yarmidan qilina boshlandi. Bu borada Yevropa mamlakatlaridan Angliya, Germaniya va Fransiya tadqiqotchiligi yetakchilik qilmoqda.

Bugungi kunda g'arb mamlakatlarida Beruniy asarlarining tadqiqotchiligida o'ziga xos maktab shakllandi. Uning astronomiya, matematika, geografiya, mineralogiya va geodeziyaga oid asarlarining aksariyati turli tillarda tarjima qilindi. Yevropaning ko'plab yirik Oliygothlarida bakalavr va magistrlik ilmiy-malakaviy bitiruv ishlarida Beruniy tadqiqotchiligining bo'lishi uning asarlarida bo'lgan moyillikni oshirmoqda.

Miloddan avval o'tgan Pifagor, Arastu, Arximed, Eratosfen kabi buyuk olimlar Yer dumaloq va shar shaklida degan fikrni aytganlar. Jumladan, miloddan avvalgi 250-yilda iskandariyalik olim Eratosfen Yer shar shaklida deb, uning o'lchamlarini quyidagicha aniqlagan. Iskandariya bilan Sienya (hozirgi Asvon) shaharlari orasidagi masofani karvonlarning yurish muddati bilan o'lchaydi, keyin bu qiymatni ikki shahar kengligining ayirmasiga bo'ladi va Yer radiusini 6840 kilometr deb chiqaradi. Bu gradus meridian yoyining uzunligi esa 119,444 bo'ladi yoki meridian yoyining uzunligi 70 121 ga tengligini aniqlab, bu yoy meridian aylanasi uzunligining 1/50 qismi ekanligini hisoblagan. Yer meridian aylanasi uzunligi 39500 kilometrga yaqin bo'lsa kerak, degan fikrga kelgan. Eratosfendan so'ng Misr, Xitoy va yunon olimlaridan bir qanchasi Eratosfen o'lchagan usul bilan Yerning kattaligini aniqlaganlar. O'rta asrlarda Yerning hajmini aniqlashda

yurtimizdan yetishib chiqqan olimlarning xizmatlari katta bo'lgan. Muso Muhammad al-Xorazmiy bir gradus meridian yoyning uzunligi 111,8 kilometrga tengligini isbotlab bergan.

Beruniyning ilmiy merosining o'rganilishi dastlab Fransiya tadqiqotchiligidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog'liq. Bugungi kunda uning Fransiya milliy kutubxonasida saqlanayotgan "Hindiston" asarini fransiyalik olim M. Reno 1845-yilda fransuz tiliga tarjima qilib Parijda chop etdi.⁵⁰ XIX asrning 80 – yillarida nemis sharqshunosi Edward Zachau ushbu asarning Fransiya milliy kutubxonasida saqlanayotgan arab tilidagi nusxasini nemis va ingliz tillariga tarjima qilib izohlar bilan to'ldirdi. Ushbu vaqt mobaynida ko'plab arab va fors olimlari Beruniyning "Hindiston" asariga e'tibor qaratishmagan. Ammo uning asarlari Sharq olimlari asarlariga bevosita bo'lmasa-da, bilvosita ta'sir o'tkazganligini F. Sulaymonova qayd etadi.⁵¹ "Hindiston" asarida oid tarjima tadqiqotlar Yevropa mamlakatlarida Beruniy ilmiy merosiga bo'lgan qiziqishni oshirib, XX asr oxiriga qadar Yevropa tadqiqotchiligidan asarning tarjima nusxalaridan foydalanildi. Dastlabki tadqiqotlarda asosan qadimgi hindlarning etnografiyasi, braxman va boshqa dinlarini o'rganishda murojaat qilingan bo'lsa, bugungi kunda ko'plab tadqiqotlarda foydaniqlmoqda.

Yevropa Uyg'onish davrida Fransiya tadqiqotchiligidan Beruniy ilmiy merosiga oid to'liq tadqiqotlar olib borilmagan bo'lsa-da, ko'plab tadqiqotchilar uning asarlaridan ayrim sharhlarni keltirishdi. XVIII asrda yashagan fransiyalik geograf Jean-Baptiste Bourguignon (1697-1782) "Hindiston xaritasida geografik izohlar" nomli monografiyasida Beruniy tuzgan Hindiston xaritasini izohlar bilan to'ldirdi.⁵² XX asr boshlarida Fransiya'dagi "La presse" gazetasi Beruniy asarlaridan sharq mamlakatlarini tarixini, eografik o'rnini yoritishda sharhlar keltiradi.

Beruniy asarlarini o'rganish XX asr o'rtalaridan amalga oshirila boshlandi. XX asrning oxirida fransiyalik sharqshunos olim V.M. Monteil Beruniyning

⁵⁰ Bibliotheque nationale de France, Paris, BN. Arabe fonds, 6080; Asarning qadimiy parcha qismlari ushbu fondning BN 2222 raqam ostida saqlanmoqda

⁵¹ Sulaymonova F., Sharq va G'arb. (Qadimiy davr va o'rta asrlar madaniy aloqalari). T.: 1997., 246-bet

⁵² Jean-Baptiste Bourguignon d'Anville. Éclaircissements géographiques sur la carte de l'Inde. Royal (Paris), 1753. p.197.

“Hindiston” asarini fransuz tilida qayta tarjima qildi va izohlar bilan to’ldirib YUNESCO homiyligida arab tilidagi matni bilan nashr etdi.⁵³ Tarjima jarayonida tadqiqotchi asosan Beruniyning hayoti, asarlari va tadqiqot usullarini yoritishga e’tibor qaratilgan.

Beruniyning arab, fors va boshqa tillardagi o’rta asrlarga oid asarlarining nusxalari bugungi kunda Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanmoqda. Asosan XIV asrdan boshlab jamlana boshlangan ushbu nusxalardan XVI-XIX asrlar davomida tadqiqotchilar o’zlarining ilmiy asarlarida foydalanishgan. (M.Reno, E.Zaxau, D.A.Zahoor, P.Kraus). bugungi kunda Beruniy ilmiy merosiga, uning astronomiya, matematika, ilohiyot, pedagogika, tarix va falsafasiga bo’lgan ilmiy ehtiyoj bir asrdan ortiq mobaynida Fransiya tadqiqotchiligidan o’rganilib kelinmoqda.

Fransiyada astronomiya fani tadqiqotlari Yevropada Uyg’onish davridan, aniqrog’i XVI asrdan boshlandi. Bugungi kunda Fransiyada astronomiya va astrologiya sohasiga oid 6 ta kompaniya, 37 ta ilmiy-tadqiqot markazi va 14 ta oliygohlar faoliyat ko’rsatmoqda. Fransiya astronomiya ta’limida qadimgi davrdan bugungi kungacha o’tgan qadimgi xalqlar (shumer, hind, yunon, mesopotamiya) va astronom olimlarning (Eratosfen, Apollon, Gipparx, Ptolomey) asarlari o’rganilgan. O’rta asrlarda astronomiya fanida vaqt va uzunlik kabi o’lchovlarining taraqqiyotida matematika (geometriya, trigonometriya) va falsafa fanlari bilan bog’lanib boradi. Natijada, VIII-XV asrlarda astronomiya tadqiqotlarning aksariyati musulmon olamida ya’ni Markaziy Osiyo va Sharq mamlakatlarida qilinadi. Bugungi kunda Fransiyada astronomiya sohasini tahlil qilsak, unda musulmon olimlardan Al-Qindi, Al-Battani, Al-Xo’jandiy, Al-Roziy, hamda O’rta Osiyolik olimlardan Al-Farobiy, Al-Beruniy, Nosir ad-Din Tusiy, Al-Koshiylar kabi mutafakkirlarning asarlarida keltirilgan izohlar va ilmiy xulosalarining tadqiqotini ko’ramiz.

⁵³Biruni, Muhammad ibn Ahmad Abu al-Rayhan al- (973-1050), *Le livre de l'Inde, extraits choisis*, trad.de l'arabe, presentes et annotes par Vincent-Mansour Monteil, Arles, Sindbad-Actes Sud/UNESCO, 1996, 365 p.

Astronomiya sohasida fransiyalik tadqiqotchi Mari-Terez Debarnot Beruniyning “Astronomiya kalitlari” asariga oid tadqiqot olib borib, uni fransuz tiliga tarjima qiladi. Olima tadqiqotlari davomida asosan asardagi berilgan yulduzlarning joylashishi o’rniga, hamda, Beruniy qoldirgan izohlar va ilmiy xulosalariga e’tibor qaratadi. XX asrning 80-yillarida tadqiqotlar E.S.Kennedi va M-Th. Debarnot Beruniyning Yer koordinatalariga oid asarini fransuz tilida tarjima qilishdi. Asarga tarjimonlar tomonidan yozilgan izoh va qaydlar 1984-yilda islom fani tarixiga oid jurnalda chop etiladi.

Fransiya ta’limida aniq fanlar sohasida ko’plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ko’plab talabalar aniq fanlarning nazariyalarini o’rganish barobarida fanning tarixi va tarixiy taraqqiyoti bilan tanishmoqda. Bugungi kunda ushbu mamlakatda matematika fanining tarixi o’qitilayotganida ushbu fan sohasida ijod qilgan olimlarning nazariyalari va usullariga murojaat qilinadi. Talabalar matematikaning tarixiy taraqqiyotida XXI asrga qadar yashab ijod qilgan 100 dan ortiq matematik olimlarning ilmiy asarlarini o’rganishadi. Fransiya darsliklarida aniq fanlar sohasida ijod qilgan olimlar ro’yxatiga e’tibor bersak, unda Markaziy Osiyolik olimlardan al-Xorazmiy, al-Beruniy, al-Koshiy kabi olimlarning matematika va fizika faniga oid asarlariga murojaat qilinayotganligiga guvoh bo’lamiz. Beruniyning shoh asari sifatida tan olingan “Qonuni Mas’udiy” da trigonometriya va sferik trigonometriya sohasida qilgan anchagina kashfiyotlarining mavjudligi so’zimizning isbotidir. Bundan tashqari Beruniyning 100 dan ortiq asarlaridagi ayrim masalalar va ularning yechimlari nafaqat Fransiyada, balki butun dunyo matematikasida qo’llanilmoqda.

XIX asrning oxiri – XX asrning birinchi yarmida Beruniy matematikasini Johann Fück va Adolf P. Youschkevitch kabi fransuz tadqiqotchilari o’rganishdi.⁵⁴

XX asrning o’rtalarida G’arb davlatlarida Beruniy falsafasiga doir tadqiqotlar qilina boshlandi. E.C.Sachau, R.R. Newton va J. Bronkhorst kabi tadqiqotchilar Beruniy falsafasini o’rganishda salmoqli hissa qo’shdilar. Tadqiqotchilar Beruniy

⁵⁴Bīrūnī’s own bibliography: P. Kraus, *Ēpître de Bīrūnī*, Paris, 1936 // LES MATHÉMATIQUES ARABES (du VIII^e au XV^e siècle), Adolf P. Youschkevitch. Ed. Vrin - CNRS - Paris -1976.

falsafasining islom va boshqa dinlardagi o'zaro ta'sirlarni ko'rsatishga urinishdi. V.-M.

Monteilo'zining tadqiqotlarida Beruniy keltirgan ilmiy faktlar orqali Markaziy Osiyo, hind va qisman arab xalqlarining islomgacha bo'lgan diniy qarashlarini ochib berdi.

Tadqiqotchi asarida asosan Beruniyning Hindistonga qilgan ijodi, yaratgan asarlari tarixiga e'tibor qaratdi.

Beruniy merosi nihoyatda keng qamrovli qomusiy ilmdir. Bugungi kunda fransuz tadqiqotchiligidagi Sharq mamlakatlarining falsafiy qarashlari, sharq olimlaridan qolgan ma'naiy merosga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Shular jumlasidan Markaziy Osiyolik olim Beruniy ijodiga bo'lgan qiziqish yangi pallaga ko'tarildi. Asrimizning boshlaridan bugungi kungacha Abu Rayhon Beruniy ijodiga oid 16 ta asar nashr etilganining o'zi so'zimizning isbotidir. Ilm ahlining uning ijodiga qiziqishi nafaqat Fransiyada, balki jahonning boshqa mamlakatlariga ham uchraydi.

2.2 Abu Ali Ibn Sino ilmiy merosi Fransiya tadqiqotchilari talqinida

Abu Ali Ibn Sino o'rta asrlardagi Markaziy Osiyolik eng yirik olimlardan biri bo'lib, G'arbda "Avicenna" nomi bilan shuhrat qozongan. G'arb mamlakatlarida bugungi kunimizgacha ham Ibn Sinoning falsafa, tibbiyot, matematika va astronomiya sohasida qilgan ijodi o'rganilmoqda. G'arbda Ibn Sinoning ilmiy merosini o'rganish XII asrdan "Qonun fit-Tib" ("Canon") asarini lotin tiliga tarjima qilishdan boshlandi. Bu davrda dastlab yevropa mutafakkirlarini Ibn Sinoning tibbiy asarlari o'ziga jalb qildi. Imperator Fridrix II ning topshirig'i bilan Kremonlik Jerard tomonidan Toledo shahrida Ibn Sinoning "Qonun fit-Tib" asari lotin tilida tarjima qilindi va 1150-1187- yillar orasida nashr etildi. Arxiyepiskop Raymond de Montredon (1142-1160) xristianlik dunyosini yunon va arab mutafakkirlarining ilmiy ishlari bilan tanishtirish maqsadida Toledo shahrida tarjimonlik maktabini tashkil etib, Ibn Sino, Forobiy, Beruniy, Farg'oniy va al-Xorazmiylarning asarlarini tarjima qiladi. Ibn Sinoning arab tilidagi asarlarini tarjima qilishda aynan Toledo va Palermo shaharlaridagi tarjimonlik maktablari katta rol o'ynadi. "Qonun fit-Tib" asarining lotin tilidagi tarjimasidan so'ng, Ibn Sinoning tibbiyoti, falsafasi, astronomiya, matematika va sehrgarlik ilmiga doir arab tilidagi matnlari Marc de Toleda va Michel Scot kabi olimlar tomonidan tarjima qilina boshlandi.⁵⁵ Fransiyalik sharqshunos A.M. Guachonning ta'kidlashicha, Ibn Sinoning tibbiyoti va asarlarining Yevropada rivojlanishi ikki xil yo'l bilan ta'sir qildi: birinchi yo'li, tarjima asarlari bevosita yevropalik tadqiqotchilarga ilmiy ta'sir etdi; ikkinchi yo'l, Ibn Sinoning tarjima asarlarining paydo bo'lishi yevropalik mualliflarni ijodiy ilhomlantirdi.⁵⁶

Ibn Sinoning falsafiy asarlari XII asrda tibbiyot sohasidagi asarlari qatori lotin tiliga tarjima qilindi. Uning qomusiy falsafiy asari "ash-Shifo", undan so'ng "Najot" asarlarining XII asrda lotin tilidagi tarjimalari bunga misoldir. XIII asrda lotin sxolastikasining rivojlanishi Ibn Sino va Sharq mutafakkirlarining falsafiy

⁵⁵ DEA en sciences de l'information et de la communication. option : 4. Manuscrits et imprimés arabes dans la France du XVII^e siècle : 1630-1740 / Annie VERNAY- NOURI. La page 66.

⁵⁶Goichon A.-M. La distinction de l'essence et de l'existence d'après Ibn Sina (Avicenne). Paris: Desclée de Brouwer, 1937. 546 p.

asarlarning o'rganilishi natijasi edi. Jumladan, Ibn Sino, Beruniy, Ibn Bajo, Ibn Rushd kabi musulmon olimlarning falsafiy, ijtimoiy va odob-axloqiy qarashlari o'rta asrlar Yevropada g'oyalar paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Ushbu holatni biz Al'Bert Buyuk, Akvinlik Foma, Brabantlik Siger, Rojer Bekon, Raymond Lulli, Dune Mole va boshqa o'rta asr yevropalik olimlarning ijodlaridan va tarjimalaridan ko'ramiz.

Ibn Sinoning birgina "Qonun fit-Tib" asari XVII asrgacha Yevropada shifokorlik, tibbiyot va amaliy tibbiyotni o'qitishda bosh dastur bo'ldi. XVII asrdan Yevropa Uyg'onish davrida ilm-fanning rivojlanishi jarayonida Ibn Sinoning asarlari g'arbda tibbiyotning yuksalishi bugun G'arb tadqiqotchilari tomonidan qayd etilmoqda. Uning tibbiyot ilmiga oid merosi G'arb mamlakatlarida oftal'mologiya, akusherlik, ginekologiya va psixologiya kabi sohalarga bo'linadi. Bu ko'plab simptom va kasalliklarni tavsiflashga, shuningdek psixoatriya sohasini tadqiq qilishga imkon berdi. Ibn Sino tomonidan ilgari surilgan tibbiy fikrlar G'arb tibbiyotida Avicenna nazariyasi bilan belgilab kelinmoqda. Jumladan

- zotiljam kasalligining farqlari, umurtqa va ko'krak qafasining yallig'lanishi, jigar sirtining yuqori qismi va diafragmaning pastki qismida siydikning to'planishi;

- yuz nerv tolalarining markaziy va sirtqi qismida falajning sodir bo'lishi;
- diabetning alomatlari;
- odam anatomiyasida organizmning torayishi va oshqozonda yaraning paydo bo'lishida tashxisning qo'yilishi;

- sariq kasalligining turli ta'riflari; ularning suv va tuproq orqali tarqalishi;
- ko'z gavharining torayishi, bosh va orqa miya pardasining yallig'lanishi;
- o'latning tarqalishi;
- infeksiyalarning yo'ldoshlar orqali o'tishi;
- qonning yurakdan o'tishi o'pkaga o'tishi va qaytishini aniqladi, shuningdek yurak qon yo'llari tizimini aniq tushuntirdi;

- odam ko'z anatomiyasini birinchi bo'lib to'g'ri tarifladi;

- suv va havo saqlaydigan kichkina organizmlarning ayrim infeksiyali kasalliklarni aniqladi;
- infeksiya tarqatuvchi miya membranalari va surunkali infeksiyalarni farqlarini ko'rsatdi;
- bo'yin, bosh va orqa miya pardasining yallig'lanishida tashxis qo'yish;

5758

XVI asrda o'z davrining donishmand shifokori deb tan olingan shveysariyalik Paratsel's Yevropa Universitetlarida shifokor tayyorlash uchun Galen va Ibn Sino asarlarini o'qitishning o'zi yetarli ekanligidan hayratda tushgan.⁵⁹ Ibn Sino tibbiyoti G'arbda boshqa olimlarning tibbiyotidan asosliyligi (G'arb tibbiyotida poydevor bo'lgani) bilan farqlanadi. Kuzatuvlari orqali Ibn Sino "butun" individni, shuningdek uning alohida qismlarini xuddi murakkab mexanikani ko'rgandek ko'rdi. Anatomiya va fiziologiyani ajratdi. U butun insonni – bugun tana va aql bilan qanday harakat qilyapmiz barchasini ko'rdi. Shifokor ixtiyoridagi bemorning ruhiy hayotiga katta ahamiyat berdi.

Bugungi kunda Ibn Sinoning tibbiyot sohasida oid asarlarining o'rta asrlardagi nusxalari Germaniya, Buyuk Britaniya va Fransiyaning yirik kutubxonalarida saqlanmoqda. Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan Ibn Sino merosining bir nechta tarjima nusxalari mavjud. Jumladan, "Tib qonunlari" ning XII asrga oid lotin tilidagi qo'lyozma parchalari, XV asrda oid lotin (1486) va ivrit (1491) tillaridagi to'liq tarjimalarini uchratamiz.⁶⁰

XX asrning o'rtalarida Fransuz tadqiqotchiligidagi Ibn Sino asarlarini tarjima qilish va ularda tadqiqot olib borish davom etdi. Bu davrda Achena Muhammad, Masse Henri, Anawati Georges C., Coichon Amelie-Marie, kabi fransiyalik tadqiqotchilar Ibn Sino tibbiyotini tadqiq qilishdi. Sharqshunos Achena Muhammad va Masse Henri Ibn Sinoning "Donishnoma" asarini fors tilidan

⁵⁷ <https://fr.wikipedia.org/wiki/Avicenne>

⁵⁸ <http://medarus.org/Medecins/MedecinsTextes/avicenne.html>

⁵⁹ <http://www.larecherche.fr/savoirs/dossier/emergence-medicaments-chimiques-01-08-2013-124380>

⁶⁰ "Tib qonunlari" asarining eng qadimiy qo'lyozma nusxalari lotin tilida 1201-1300-yillar oralig'ida jamlangan. Lotin tilidagi nusxasi Fransiya Milliy kutubxonasida NB. 6454 raqam ostida saqlanmoqda.

fransuz tiliga tarjima qilishdi.⁶¹ Misrlilik faylasuf Anawati Georges C. Ibn Sinoning “Shifo Metafizikasi” asarini fransuz tiliga tarjima qilib, qaydlar bilan to’ldirdi.

Ibn Sino musulmon olamining yirik mutafakkirlaridan biri sifatida uning falsafasi yevropaliklarga ma’lum edi. XII asrdan keyin yashagan o’rta asr fransuz mutafakkirlarining deyarli barchasi Ibn Sino falsafasini bilishardi. Ammo ular uni turlicha tushunishdi. Dastlab, o’rta asrlarda yevropalik tadqiqotchilar Ibn Sino falsafasini materialistik g’oyalarda ta’sir etishda ko’rsatishdi. Masalan, Parij Universiteti professori Brabantlik Siger (1240-1280) va Shartr falsafa maktabi Ibn Sino falsafasini talabalarda asosan materialistik g’oyalarda ta’sir etish orqali o’qitishdi. Brabantlik Sigerning ma’ruzalari xristianlik e’tiqodi doirasida bo’lishiga qaramay, Aristotel, Prokl Diadox, Ibn Sino va Ibn Rushd falsafalaridan foydalanardi. Shunday bo’lsa-da, nemis faylasufi Al’bert Buyuk (1193-1280) va Akvinyalik Foma (1225-1274) Ibn Sino falsafasida diniy-falsafiy ruhiyatni birinchilardan bo’lib ko’rishdi.

Zamonaviy fransuz falsafasida tadqiqotchilar Ibn Sino falsafasini turlicha izohlashdi. Ularning ayrimlari unda materializm ma’nolarini (A.M. Guashon, B. Siger) ko’rishsa, boshqalar falsafada diniy xulq-atvorni (Lui Gard’e, Albert Buyuk) isbotlashga urinishdi. Biroq barcha fransuz tadqiqotchilari ilmiy xulosalarida Ibn Sino falsafasi Platon, Aristotel va neoplaton falsafasining davomi ekanligini ta’kidlashadi.

Ibn Sino tarjima asarlari fransuz o’rta asr mutafakkirlarining falsafiy dunyoqarashida va fransuz falsafiy oqim maktablarida kuchli ta’sir ko’rsatdi. Yevropa Renessansi davrida P’era d’Elli, Jana de Jerson, Fransua Rable, Mishel Monten va boshqa fransuz tadqiqotchilari Ibn Sino ilmiy merosining tadqiqotlarini davom ettirishdi.

Fransuz klassisizm davri tadqiqotchilari Ibn Sinoning falsafiy asarlarini o’rganib tadqiq qilishdi. Fransuz yangi ratsionalizmi asoschisi Rene Dekart (1596-1650) ning falsafiy qarashlarida Ibn Sino falsafasidagi ruhiyat g’oyalarini sezish

⁶¹Achena Muhammad, Masse Henri. Avicenne. Le Livre de science (traduction seule). (I), Logique, Métaphysique; (II), Physique, Arithmétique, Géométrie, Astronomie, Musique. Les Belles-Lettres, Paris 1955-1958.

mumkin. Ayniqsa uning ratsionalizm g'oyalaridagi "men fikrlayapman, shunday ekan, mavjudman" ("Cogito, ergo sum") degan apogrifi Platon, Aristotel, Avreliy Avgust va Ibn Sinolarning falsafiy hikmatlaridan kelib chiqqan. Ibn Sinoning ilmiy tajribaga oid fikrida "Inson o'z mohatini anglashida, o'zini o'zi anglaydi!" – degan so'zlari Dekart apogrifining falsafiy ma'nolariga asos bo'ladi.⁶² Dekart aytadi, "qarashlar (hozircha) isbotlanmadimi, tegishli bo'lishi mumkin emas". Boshqa bir joyda, "Men ishonch hosil qilishim kerak, fikrimni ayta olishimga!". Boshqa bir so'z bilan Ibn Sino "o'z yordami va harakatlari bilan erishmoqning iloji yo'q!" – deydi.⁶³ Bugungi zamonaviy falsafada ham qachonki aqliy kuchlar va harakatlarning mavjudligiga ishonch hosil qilinmasa, uning mavjudligi inkor qilinadi. XVIII asrda fransuz tadqiqotchilari Gelvesiy, Didro va boshqalar Dekart apogrifida Ibn Sinoning so'zlarini dalil qilishadi.

Fransuz tadqiqotchilari Ibn Sino ta'limotida "zarurlik" va "mumkinlik" g'oyalarining tub ma'nosini tushunishga tadqiq qilishdi. Ularning tadqiqotlarida "zarurlik" bu, islom ta'limotida to'g'ri kelmaydi, ammo, turmushda zaruriy bo'lgan ta'limotni yaratadi, degan ilmiy xulosalar mavjud. Bir so'z bilan aytganda, uning "zarurlik" va "mumkinlik" ta'limoti sabab va oqibat kategoriyalari bilan to'g'ri keladi. "Zarurlik" – bu sabab, (ijodkor uchun), "mumkinlik" – bu natija (yaratilgan). Deyarli barcha fransuz tadqiqotchilari Ibn Sino falsafasida "zarurlik" va "mumkinlik" g'oyalarini ("sabab va natija") o'zaro bir-biriga yaqin aloqada yashaydi deb hisoblashadi, dunyoning kelib chiqishi nazariyalarida Ibn Sino ta'limotidan azaliy va qadimdan mavjud degan xulosaga kelishdi. Uning kelib chiqishi "zarurlik" – sabab bo'lsa, demak uning natijasi ham boqiy deyishdi. Bu Ibn Sinoning Xudoga ishonmasligiga yoki musulmon emasligini anglatmaydi. Ibn Sino Xudoga ishonuvchi musulmon edi. Bir qator asarlari ham bunga dalildir ("ash-Shifo", "Najot"). Buni fransuz tadqiqotchisi L. Gardet ilmiy tadqiqotlarida isbotlaydi. L. Gardet o'zining asarida Ibn Sinoning musulmon bo'lganligini va ko'plab matnlarda Qur'ondan havolalar keltirganligini qayd etadi.

⁶²Qarang. https://en.wikipedia.org/wiki/Cogito_ergo_sum

⁶³Anna-Teresa Tymieniecka. Islamic Philosophy and Occidental Phenomenology on the Perennial Issue of Microcosm and Macrocosm. Springer Science & Business Media, 2006. P.130.

XVII asrdan boshlab Yevropada Sharq ilmiga bo'lgan qiziqish biroz so'nib, bunday holat XIX asr oxiriga qadar davom etdi. XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Sharqqa bo'lgan qiziqish qayta boshlandi. Bu davrda qator mutafakkirlarning ilmiy merosiga qiziqish, ularni tadqiq qilish kuzatildi va bu hozirgi davrimizgacha davom etmoqda. Shunday bo'lsa-da, XVII asrdan keyingi davr oralig'ida R.Dekart, P.Gessendi, Vol'ter, D.Didro, J.J.Russo, K.A.Gel'vetsiy kabi fransuz ma'rifatparvarlarning tadqiqotlarida Ibn Sino asarlarining ta'sirini ko'ramiz.

XIX asrda Yevropaning birinchi faylasuflaridan biri, fransiyalik J. Ernest Renan Ibn Sino falsafasiga har tomonlama baho berdi. U faylasuf Ibn Rushd tomonidan Aristotel falsafasiga berilgan izohlarini o'rgandi, shundan so'ng Arab falsafasini to'liqroq Ibn Sino asarlaridan qidirish kerakligini ta'kidladi. XXI asr boshlarida Fransiya tadqiqotchiligidagi Tony Street, A. Goichon, Valeria Buffon, J. Janssens, Matthias Hoesch va Fransiya mashhur Vrin nashriyoti XXI asrda Ibn Sino falsafasini tadqiq qilishni davom ettirishdi. Birgina Fransiya Vrin nashriyoti XXI asr boshlarida 10 dan ortiq Ibn Sino asarlarining tadqiqotlariga oid tarjima asarlarni qayta nashr qildi.

Fransiyalik mashhur faylasuf Carra de Vaux (1867-1953) Ibn Sinoning bir qator falsafiy asarlarini tadqiq qildi. Uning fikricha, Ibn Sino metafizikasi ikki konsepsiyadan ya'ni mavjudlik jarayoni va sabablaridan iborat. Ibn Sino merosining sabab jarayoni narsa va hodisalarning sababiy bog'lanishlaridan kelib chiqadi. Sabablar faqat oxirgi jarayonda boshqa ta'sir etuvchi kuchga aylanadi. Ushbu ta'sir etuvchi kuch barcha narsalarga mo'ljal hisoblanadi.⁶⁴

Fransiyalik tadqiqotchi Guachonning fikricha, Ibn Sino Aristotel falsafasini tasdiqlaydi ya'ni haqiqat, muhabbat va hayot tushunchalariga yaratguvchi Xudoni ko'radi. Bu falsafada yakkaxudolik ta'limoti orqali o'rganilib, ilohiy yozuvlarni yoki Qur'on oyatlarini tadqiq etish bilan izohlanadi. Guachonning fikricha, Ibn Sino nazariyasida borliqning tiklanishida tashqi kuch sabablari bor. Turmush,

⁶⁴ Carra de Vaux. Carra de Vaux (Baron Bernard). Avicenne (Les grands philosophes). -Paris : Felix Alcan, 1900. P. 302.

narsalar va zaruriyat g'oyalari birinchi navbatda jonga aks etadi. Fransiyalik tadqiqotchi Ibn Sinoning dil (yurak) nazariyasini ko'rayotib, Ibn Sino tanadagi dilni alohida mavjudligini ta'kidlaganini va ular vaqtincha ekanligini ta'kidlaydi. Guachon Ibn Sino falsafasidagi ideallik va mistik g'oyalarini qayd etadi. Uning fikricha, Ibn Sino g'oyalari Aristotel g'oyalaridan uzoqlashdi, neoplaton g'oyalaridan ustun kelib Yevropa sxolastikasining vujudga kelishiga sabab bo'ldi.⁶⁵

Fransiya katolik ruhoniysi L. Gardet, Ibn Sino falsafasiga ko'ra inson tanasi faqat yaxshilikni qidirishga va Qur'ondagi buyruqlarni bajarishga moyilligini qayd etadi. Tadqiqotchi Ibn Sinoning Inson qalbi boshqa bir dunyodan shu mavjud dunyoga keladi va buni qayta takrorlay olmaydi, degan nazariyasiga qo'shiladi. L. Gardet o'zining tadqiqotlarida Ibn Sinoning diniy qarashlarini tadqiq qilib, uni yunon falsafasiga mavjud qalb haqidagi tushunchalarni solishtiradi.⁶⁶

Ibn Sino falsafasida qalb va aql tushunchalari bir-biridan farqlanishi fransuz tadqiqotchilgida isbotlandi. Aql faqat insonga xos, qalb esa o'simlik, hayvon va insonga xosdir. Qalb faqat tanada harakatni amalga oshiradi, o'lim bilan tanadagi qalb ham o'ladi yoki yo'q bo'ladi. Lekin aql insonning tug'ilishiga qadar mavjud bo'lmaydi, u faqat shaxs orqali rivojlanadi va o'limdan keyin abadiy qoladi. Ibn Sino falsafasida aql tufayli insoniy qalb abadiy qoladi.

Fransuz tadqiqotchiligiga ko'ra, Ibn Sino falsafasi umumiy ma'noda ideallik fe'l-atvorga ega. Ibn Sino ko'proq ratsionalizm g'oyalariga tayanmay, ba'zida fikrini Qur'on va suralar orqali ham tushuntiradi. Lekin har qanday holatda ko'proq falsafada yunon faylasuflarining, ayniqsa Aristotel, Platon va neoplatonlarning falsafasiga ergashadi. Ibn Sinoning ushbu qobiliyati uning falsafasini faqat islomiy deb baholashdan saqlab qoldi.

Fransuz tadqiqotchilari Ibn Sinoning falsafiy nazariyasini tadqiq qilib, turlicha tahlil va xulosalarni berishadi. Umuman olganda, fransuz

⁶⁵Goichon A.-M. La philosophie d'Avicenne et son influence en Europe Médiévale. - Paris, 1951. P. 27.

⁶⁶Gardet Louis. Réflexions sur un thème Avicennien. - Mélanges d'orientalisme offerts à Henri Massé. Téhéran: Imprimerie de l'Université, 1963. P. 151 – 159.

tadqiqotchilarining tajribasidan shunday xulosaga kelish mumkinki, Ibn Sino Platon, Aristotel va neoplaton rahnamolarining asarlarini tadqiq qilib o'rgangan, ularga o'zining nazariyasini qo'shgan, hamda Forobiy falsafasining davomchisi bo'lgan. Boshqa tomondan fransiyalik tadqiqotchilar Ibn Sino yashagan davrida tashqi muhitning ta'sirini ham inobatga olishdi. Ibn Sinoning diniy va idealistik g'oyalarini ob'yektib baholashdi. Uning Xudo va dunyo haqidagi, shuningdek moddalar, inson qalbi va tanasi haqidagi tushunchalarni tadqiq qilib, yunon mutafakkirlari falsafasining davomchisi degan xulosaga kelishdi.

3.1. Sharq ma'naviy merosini maktab tarix ta'limida o'rganishning ahamiyati

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng hukumatimiz tomonidan ta'lim tizimi tubdan isloh qilina boshlandi. Ushbu islohotlar ta'lim tizimining barcha jabhalarini qamrab olib, asosan yosh avlodni tarbiyalash, ularga zamon talabi darajasida bilim berish, malakali kadrlarni yetishtirish kabi talablardan iborat. Bugungi kunda yurtimizda Maktabgacha ta'lim, Umumiy o'rta ta'lim, O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, Oliy ta'lim, Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim tizimi yaratilgan bo'lib, barchasida zamon talabi darajasida o'quv jarayoni shakllantirildi. Bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan **“Ta'lim to'g'risida”** gi (O'zR №464-1 sonli 29.08.1997), **“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”** gi (463-I-son, 29.08.1997) qonunlari, Prezidentimizning **“Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida”** gi (№ PF-1869 sonli 06.10.1997) farmonlari, shuningdek Vazirlar Mahkamasining **“O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'lim sifatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”** gi (1993.06.14 №283) va **“O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”** gi (1998.05.13 №204) qarorlari mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish va barqarorlashtirishda bosh manba bo'ldi. Ushbu hujjatlar ta'lim tizimimizda chuqur islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Mamlakatimizda ta'lim taraqqiyotning shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy hamda madaniy ehtiyojlarini ta'minlaydigan ustuvor sohasi sifatida qonunan belgilab qo'yildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida mamlakatimizda uzluksiz ta'limning yangi mexanizmi ishlab chiqildi. Jumladan, 12 yillik majburiy ta'lim joriy etildi. Buning birinchi bosqichini 9 yillik umumiy o'rta ta'lim maktabi tashkil etadi.

Sho'rolar tuzumi davrida yurtimizda milliy ta'lim tizimi joriy etilmagan edi. Hamma narsa hukmron mafkura manfaatlariga bo'ysundirilgan, aniqrog'i, sobiq markazning mustamlakachilik maqsadlariga qaratilgan bo'lib, maktab faoliyatida totalitar tuzumning yorqin namunasini ko'rardik. Sho'rolar mafkurasi

parchalangach, milliy ta'limimizdagi turg'unlikdan so'ng, mustaqilligimizning dastlabki yillarida ta'lim tizimini har taraflama, ya'ni ham shaklan, ham mazmunan isloh qilish – yangilash shart edi. Bu jarayonni to'g'ri baholay olgan hukumatimiz tomonidan ushbu sohada barqaror bosqichma-bosqich islohotlar qilina boshlandi. Konstitutsiyamizning 41-moddasida: **“Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir”**- degan muhim so'zlar mavjud. Avvalo, bu modda asosida yurtimizda farzandi 7 yoshga to'lgan biron-bir ota-onaning bolasini maktabdan olib qolishi mumkin emas. Qolaversa, mamlakat miqyosida bepul umumiy o'rta ta'lim maktablari joriy etilgan. Bundan tashqari, barcha maktablar davlat tarafidan bunyod etiladi, ta'mirlanadi. Demak, umumiy o'rta ta'lim tamoman majburiy hisoblanadi. Undan keyin esa uch yillik majburiy-ixtiyoriy ta'lim boshlanadi. Shu tariqa, umumiy o'rta ta'lim maktabini bitirganlarning hammasi yana uch yillik o'rta maxsus ta'lim muassasasida o'qishi shart. Ixtiyoriyligi shundaki, umumiy o'rta ta'lim maktabini bitirgan o'quvchi – endi bundan keyingi ta'lim yo'nalishini tanlash huquqiga ega. O'qishning bu ikkinchi bosqichi kadrlarni differentsiatsiyalash imkonini beradi. Bundan keyin oliy ta'lim muassasasida o'qishni istayotganlar, kasb-hunar kolleji yoki akademik litseyni bitirganlik haqidagi hujjati bilan Oliy ta'limning xoxlagan bakalavr yo'nalishida hujjat topshirishi mumkin.⁶⁷

Yurtimizda ta'lim sohasini isloh qilish bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayoni yo'lga qo'yildi va hukumatimiz tomonidan Davlat umummilliy dasturlari ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar asosida mamlakatimiz ta'lim tizimida, jumladan maktab ta'limida qator barqaror ishlar amalga oshirila boshlandi. Masalan, 2004-2009-yillarda O'zbekistonda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi asosida amalda mamlakatimizdagi o'n mingga yaqin umumiy o'rta ta'lim maktabining holati yaxshilandi. Bir qancha yangi maktablar qurildi, ta'mirlandi. Barcha maktablarning moddiy-texnikaviy bazasi mustahkamlandi. Prezidentimizning 2011-yil 20-mayda imzolangan **“Oliy ta'lim**

⁶⁷O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligi elektron sayti. <http://m.mfa.uz/uz/press/news/2015/08/5065/>

muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarorlari ham shu yo'ldagi sa'y-harakatlarning uzviy davom etayotganidan dalolat beradi. Shu Qaror asosida 2011–2016-yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnikaviy bazasini modernizatsiyalash va mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha Dastur ma'qullandi. O'zbekistonda maktab ta'limining sifati, o'quv jarayoni va dars beruvchi mutaxassislar malakasi zamon talabi darajasida yaxshilandi. Va ushbu jarayon bugungi kunimizgacha boshqichma-bosqich davom etib kelinmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim kerakli bilim hajmi, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, tashkiliy mahorat va amaliy tajriba poydevorini qo'yib, boshlang'ich professional yo'nalishni va ta'limning keyingi pog'onasini tanlashda ko'maklashadi. Vazirlar Mahkamasining **“Umumta'lim maktablari uchun darsliklar... nashr qilish tizimini takomillashtirish loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”** gi (№187 sonli 04.05.1998), **“O'zbekiston Respublikasida Umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida”** gi (№203 sonli 13.05.1998)qarorlari mamlakatimizda Umumiy o'rta ta'limni tashkil etish, hamda darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratishda muhim hujjat bo'ldi.

Yurtimizda qonunchiligimiz doirasida bolalar 6-7 yoshdan maktabga qabul qilinadi. Maktabning barcha birinchi sinf o'quvchilari bepul o'quv kitoblari va o'quv asboblari bilan, shuningdek qolgan barcha sinflarda o'quv kitoblari bilan ta'minlanadi. 1996 yildan beri kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan 1-9- sinf o'quvchilariga har yili davlat byudjeti hisobidan o'quv ashyolari va qishki kiyim komplektlari berib borilmoqda. O'zbekistonda boshlang'ich va o'rta ta'lim tashkil qilinishi va tarkibiga ko'ra bir - biri bilan bevosita bog'liq. Har bir umumta'lim maktabi ikkala pog'onada umumiy o'rta ta'limni amalga oshiradi. Bu boshlang'ich maktabda bitiruvchilarning to'liq hisobini olib borishni va umumiy o'rta ta'lim tizimida uzluksizlikni ta'minlaydi.

Bugungi kunda yurtimizda maktab darsliklari yaratish va ularni umumta'lim maktablarida tadbiq etish hukumatimiz tomonidan to'liq nazoratga

olingan. Chunki bugungi kunda dunyoda modernizatsiya va integratsiyalashuv jarayoni, shuningdek axborot-kommunikatsiya tizimini kun sayin rivojlanib bormoqdaki, har qanday ilmiy o'zgarishlarga yoshlar tayyor turmog'i lozim. Yurtimizda ta'lim tizimi nafaqat bunday ilmiy o'zgarishlarga tayyor turishi, balki har qanday ilmiy yangilikni yanada rivojlantirishi, uni g'oyaviy boyishi va undan oqilona foydalanishiga qaratilgan.

Yaratilayotgan maktab darsliklar o'quvchilarga fan asoslari bo'yicha tizimli bilimlarni berish bilan birga, ta'lim jarayonida keng dunyoqarashning shakllanishi va ijodiy fikrlash qobiliyatining paydo bo'lishiga xizmat qiladi. Barcha darsliklar avvalambor, vatanparvarlik ruhida bo'lishi bilan birgalikda milliy ta'limimiz va yoshlar tarbiyasiga xizmat qilishi lozim. Bugungi kunimizda aynan yoshlar tarbiyasiga davlatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratsak, bugungi kunda O'zbekiston aholisining 1/3 qismini 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi.⁶⁸ Ularni ma'naviy komil inson qilib tarbiyalash, hamda jismonan yuksaltirish, qalbida milliylik va vatanparvarlik ruhini shakllantirish davlatimiz siyosatining muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda yoshlar avlodni tarbiyalashda avvalambor tarixiy qadriyatlarimiz va boy ma'naviy merosimizdan ayirgan holda maqsadga erishib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiya avvalambor, o'zlikni anglashdan boshlanadi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, Biz – boy tarix, yuksak madaniyat, buyuk ma'naviyat vorislarimiz.⁶⁹ Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan bilim olishga keng imkoniyatlar ochilgan ekan, ta'lim va tarbiya jarayonida ma'naviy jasorat ko'rsatgan allomalarimizni, yurt uchun mardona kurashgan ajdodlarimizni ibrat qilib ko'rsatmaslikning iloji yo'q. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, **bu haqda ko'proq gapirishimiz, merosimizni ko'proq va chuqurroq anglashimiz kerak.**⁷⁰

⁶⁸O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligi electron sayti.<http://m.mfa.uz/uz/press/news/2015/08/5065/>

⁶⁹I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T., 2008, 163-bet

⁷⁰I.A.Karimov. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk keljagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. T., 2015., 110-bet.

Ma'lumki mustaqillikdan so'ng tariximizga baho berishda dunyo jamoatchiligi bir haqiqatni tan oldi. Bu ham bo'lsa butun dunyo sivilizatsiyasiga ilmiy ta'sir ko'rsatgan, adabiyotlarda Sharq ma'naviy merosi deya atalib kelinayotgan IX-XII va XIV-XV asrlardagi tariximizdir. Yurtimizda ushbu davrlar tarixini o'rganish o'quvchilarga maktab ta'limidan ya'ni O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan 7-sinf O'zbekiston tarixi darsligida o'z aksini topgan. O'quvchilar bu darslik asosida ma'lum allomalarimizning, jumladan Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Imom al-Buxoriy, Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud az-Zamaxshariy, Burhonuddin al-Marg'inoniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa shu davr oralig'ida yashagan mutafakkirlarimizning hayot yo'llari, hamda ularning yozgan asarlari haqida qisqacha tanishib oladilar. Albatta darslikda berilgan ma'lumotlarda maktab o'quvchisining egallashi lozim bo'lgan bilimlar talab darajasida inobatga olingan. Chunki ajdodlarimizdan bizga ulkan ma'naviy meros qolganki, bugun inson zoti uni tadqiq qilib poyoniga yetkaza olmaydi. Bugungi kunda yurtimizda ijtimoiy fanlarda ya'ni tarix, falsafa, adabiyot va boshqa sohalarda ko'plab tadqiqotlar qilinyaptiki, ushbu tadqiqotlar natijasida yoshlarimiz ma'naviy merosimiz, qadriyatlarimiz va tariximiz haqida tushunchaga ega bo'lishmoqda.

Har bir allomalarimizning hayot yo'li, ularning yozgan asarlari bugungi kunda butun dunyoda ko'plab tadqiqotlar qilinishiga sabab bo'lmoqda. Maktab o'quvchisi ibrat olishi, qanday buyuk zotlarning avlodi ekanligini tushunishi va o'zligidan faxrlanishi uchun mavjud ma'lumotlarning bo'lishi bu pedagoglarning o'quv jarayonidagi yutug'i hisoblanadi. Ma'naviy merosimizga doir qolgan tarbiyaviy ahamiyatga molik ma'lumotlarni o'quvchiga yetkazish, bu o'qituvchilarning malakasiga bog'liq.

Xulosa o'rnida aytishim mumkinki, yosh avlod tarbiyasida ma'naviy qadriyatlarning o'rni beqiyosdir. Xalqning boy ma'naviy va madaniy me'rosi bilan tanishtirib borish orqali bolada atrofdagi olamga bo'lgan g'amxo'rlik hissi uyg'otib boriladi. O'rta maktab o'quvchilar uchun maktab fanlarini mustaqil o'rganishga

keng imkoniyatlar yaratib beradi. Darsliklarimizda aynan qadriyatlarimiz, ma'naviy merosimiz, urf-odatlarimiz haqida ma'lumotlar yanada kengroq yoritilsa, kelajakda yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda ijobiy natijaga erishamiz.

3.2. Maktab tarix ta'limida Fransuz sharqshunoslari tajribasidan foydalanish

Barcha insoniyat bitta sayyorada yashayapti va biosferaning bir qismi hisoblanadi. Olimlarning tushunishicha insoniyat kelajagi dunyo miqyosidagi insoniy ehtiyojlar tizimining o'sishiga bog'liq bo'lib qoldi. Ushbu jarayonda dunyoni anglash, barcha fanlardan foydalanish, shuningdek inson ehtiyojlarini va orzularini qanoatlantirish zarurligi tushunildi. Bunda insoniyat jadal sur'atda barcha fan sohalarida ya'ni sport, tarbiya, madaniyat, ilmiy-texnika, axborot kommunikatsiya, ijtimoiy va tabiiy fanlar, shuningdek ko'plab sohalarda hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Butun insoniyat madaniyati ilmiy bilimlarni o'z ichiga olgan yirik meros bo'lishi mumkin. Ilmiy bilimlar har bir insonga tabiat va jamiyatni chuqurroq tushunishga, hozirgi va kelajak avlodga sifatli hayot tarzini oshirishga, sog'lom muhit yaratishga yordam berishi mumkin.

Ilmiy bilimlar taraqqiyoti insoniyatga turli kasalliklarning davolash usullarini va hayot umrining uzayishiga olib keladi. Dunyoning ko'plab qismida aholining qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarish ehtiyojining o'sib bormoqda. Ushbu jarayon insonga texnologik ishlanmalar va yangi energetik manbalarni topishga imkon yaratmoqda. Yangi ilmiy bilimlar insoniyatni texnikaviy yutuqlar, ilmiy, madaniy va intellektual salohiyatini boyitish bilan birgalikda iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi.

Ilmiy fikr yuritish manbalarni turli xil ko'rish, ularni tushunish, tabiiy va ijtimoiy sohalarda tanqidiy tahlil qilish qobiliyatiga tayanadi. Shunday qilib insoniyat hayotida fanning rivojlanishi erkin va tanqidiy fikr yuritishga tayanadi, hamda YUNESCO Nizomida aytilganidek, ilmiy jamoaga urf-odat, madaniyat va dinlarining kelib chiqishiga yordamlashadi. Ilmiy sohada millarlararo hamkorlikda ishlash dunyo miqyosidagi xavfsizlikni va tinchlikning rivojlanish shakllarini ta'minlaydi, ilmiy yutuqlarning keyingi bosqichlarini tezlashtiradi.

Yuqorida ta'kidlaganimdek, yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng barcha sohalar qatori, ta'lim tizimida ham o'z yo'lini tanlab oldi. Yurtimizda ta'lim

tizimini o'qitishda qadimdan mavjud tariximiz, dinimiz va ma'naviyatimiz bilan bog'langan holda olib borilmoqda. Ushbu jarayonda chet el davlatlarning sinovdan o'tgan tajribasidan foydalanish, rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, ular bilan tajriba almashinish lozim bo'ladi.

Ma'lumki Sobiq Ittifoq davrida tilimiz, dinimiz va san'atimiz, shuningdek, buyuk allomalarimizning nomlari, ularning bebaho asarlari kamsitilar, ularni o'rganish, rivojlantirishga yo'l qo'yilmas edi. Buning zahirida xalqimizni ijodkorlikdan, yaratish tuyg'usidan begona qilib ko'rsatishga urinish, uning milliy tarixi yo'q, degan soxta va g'arazli fikrni odamlar ongiga singdirib, ularni mute va qaram qilishga qaratilgan makkor siyosat yashirin edi. Stalinning totalitar tuzumi o'zining yuqori bosqichiga chiqqan bir davrda, Yevropa jamiyatida rivojlanishning yangi bosqichi ya'ni modernizatsiya jarayoni boshlandi. Bu jarayon Yevropa ta'lim tizimida ijobiy ta'sir qilib, ilmiy tadqiqotchilik, texnika va ijtimoiy sohalarda ko'zga ko'rindi. Bugungi kunda yarim asrdan ortiq vaqt o'tibiki, g'arb ilmiy va ilmiy tadqiqotchilik sohasida yirik ilmiy meros jamlandi. Fransiya, Germaniya, Angliya va boshqa davlatlarda Sharq ma'naviy merosiga oid qilingan tadqiqotlar, ularning xulosalari asnosida o'ziga xos maktab shakllandi.

Mustaqillikning dastlabki davrlarida yurtboshimiz Sobiq Ittifoq tomonidan yurtimizga yuritilgan achinarli siyosat natijalariga barham berishda, xalqimizning bunyodkorlik, ijodkorlik dahosini qayta uyg'otishga, uni o'z taqdiri, o'z hayotining tom ma'nodagi egasiga aylantirishga bosh sababchi bo'ldilar va bizga taraqqiyot yo'lini ko'rsatdilar. Ayni paytda zamonning o'zi yangicha taraqqiyot yo'lini taqozo etardi. Yurtboshimiz tomonlaridan xalqimiz, Vatanimiz manfaatlarini inobatga olgan holda boshlab berilgan islohotlar yurtimizdagi barcha sohalarni qamrab oldi. Yurtimizda ta'lim tizimi uzoqni ko'zlab bosqichma-bosqich Davlat dasturi asosida isloh qilina boshlandi. Bunday oqilona yo'lni ko'ra bilgan yurtboshimiz **"...xalq ta'limini tubdan isloh qilish, mazkur dasturni amalga oshirish bizdan nihoyatda katta kuch, mablag` va imkoniyat talab qilmoqda. Lekin, istiqbolimiz, istiqbolimiz ko'zi bilan qaraganda, ham iqtisod, ham siyosat, ham ma'naviyat nuqtai nazaridan bu sarf-xarajatlarga nazar**

tashlasak, undan keladigan manfaat har qanday xarajatlarni qoplashi va oqlashi muqarrar” – deb ta’kidlagan edilar.⁷¹ Prezidentimiz I.A.Karimov Vazirlar Mahkamasining 2012-yil yakunlari va 2013-yilga mo’ljallangan eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan yig’ilishda 2012-yilda ijtimoiy sohada oid ishlar izchillik bilan davom ettirilganini ta’kidlab, Davlat byudjetining 59,2 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratilgani, uning 35 foizi ta’lim tizimiga yo’naltirilganini ta’kidlagan edilar.⁷² Davlat byudjetining ijtimoiy yo’naltirilganligi ta’minlanishi, bunda yoshlarning zamonaviy bilim olishi, munosib haq to’lanadigan barqaror ish o’rniga ega bo’lishiga e’tibor qaratilayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda O’zbekiston ta’lim tizimida Yevropa mamlakatlari, AQSH, Rossiya, Janubiy Koreya va boshqa davlatlar bilan istiqbolli hamkorliklarni yo’lga qo’ydi. TEMPUS, IELTS, TOEFL kabi dasturlar shular jumlasidandir. Bugungi kunda yurtimizda TEMPUS dasturi doirasida 19 ta loyiha amalga oshirildi.⁷³ Ta’lim tizimidagi ushbu yutuqlar yoshlarimiz bilim malakasining oshishiga imkon bermoqda.

Yuqori bobda ta’kidlaganimdek, yurtimiz azaldan ilm-fan o’chog’i bo’lgan. Yurtimizdan yetishib chiqqan mutafakkir, olim-u, shoirlarning yaratgan asarlarini bugungi kunimizgacha insoniyat tadqiq etib poyoniga yetkaza olmayapti. O’rta asrlarda ushbu asarlar Yevropa mamlakatlari tadqiqotchiligida o’zganila boshlanishi, bugungi kunda ushbu davlatlarda tadqiqot maktablarining shakllanganligi, hamda besh asrdan ortiq tajriba to’planganligidan dalolat beradi. XX asr ikkinchi yarmidan boshlab Germaniya, Fransiya, Angliya va Ispaniya kabi davlatlardagi Sharqshunoslik maktablari ilmiy merosimizga doir ko’plab yutuqlarni amalga oshirdi. Ushbu davlatlarda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab qilingan tadqiqotlar, yaratilgan asarlar bugungi kunda qayta yangi tahrirda izohlar bilan to’ldirilgan holda nashr etilyapti.

⁷¹I.Karimov. “Barkamol avlod O’zbekiston taraqqiyotining poydevori”.T. “Sharq”.1997 yil. 19 bet.

⁷²Ta’lim sohasidagi islohotlar.O’zbekiston ovozi.Ijtimoiy-siyosiygazeta.

⁷³ <http://www.tempus.uz/index.php?lang=uz> (ko’rilgan sana: 21.04.2016)

Fransiyada sharqshunoslik Institutlarining shakllanishi va Sharq mamlakatlari madaniyatibilan qiziqishi XIX asrning oxiridan boshlandi. XX asrning ikkinchi yarmidan Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy merosiga doir tadqiqotlar, jumladan falsafa, astronomiya, matematika, musiqashunoslik fanlariga doir tadqiqotlar ko'plab qilina boshlandi. XXI ning boshlaridan bugungi kungacha Beruniy ijodiga doir 16 ta, Ibn Sino ijodiga doir 13 ta, Xorazmiy, Forobiy, Farg'oniy ijodlariga doir 20 dan ortiq asarlar chop etildi.

Fransiya ta'lim tizimiga e'tibor bersak maktab ta'limida har bir fan doirasida fanning tarixi va unga hissa qo'shgan olimlarning ijodi o'qitilib boriladi (2.2 bobda qarang). Bunday yo'l orqali o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi orttirilib, olimlarning hayoti va asarlari bilan tanishtirib boriladi. Fanni o'qitishda Yevropalik olimlarning, ayniqsa fransuz sharqshunoslarining ilmiy tadqiqotlari orqali o'quvchiga vatanparvarlik ruhiyati tarbiyalanadi.

Fransuz sharqshunoslarining asarlarini tahlil qilib, uni yurtimiz ta'lim tizimida qo'llasak, Fransiya va O'zbekistonning ilmiy hamkorligidan, tajribalarning almashinuvidan yangi ilmiy imkoniyatlar ochiladi. Bu esa umumta'lim, o'rta va oliy ta'lim tizimimizda ijobiy ta'sir qiladi. Shu maqsadda fransuz sharqshunoslarining Sharq ma'naviy merosiga oid tajribalaridan maktab ta'limida foydalanish yuzasidan quyidagi takliflarni ilgari suraman:

- 7-sinf o'zbekiston tarixi darsligida Sharq ma'naviy merosi haqida gapirilganda, xorijiy davlatlardagi ushbu mavzularga oid tadqiqotlarni yoritish; darslikda Xorazmiy, Beruniy Ibn Sino va boshqa allomalarning hayoti va faoliyati yoritiladi-yu, ammo chet el mamlakatlardagi ilmiy merosi bilan bog'liq masalalar, ularning g'arb ilmiga bo'lgan ta'siri yoritilmaydi. Vaholanki, Yevropa mamlakatlarida fan tarixi doirasida fanning taraqqiyotiga hissa qo'shgan olimlarning asarlari va ularning nazariyalari o'qitiladi;

- Milliy istiqlol g'oyasi darslarida Yevropalik olimlarning Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqa allomalarimizning ilmiy merosiga doir tadqiqotlari haqida gapirish, ularni turkumlash va ulardagi insonparvarlik, vatanparvarlik g'oyalarining mujassamligini ko'rsatish;

- Aniq fanlar doirasida fransuz matematik va asronom olimlarining Beruniyning astronomiya, matematika, fizika, metafizika fanlariga oid asarlarini o'rganganligini, shuningdek, qiyosiy tahlil qilganligini va shu tahlillar asosida yangi zamonaviy nazariyaga asos solganligini aytib o'tish;

- Fransiz olimlarining tadqiqotlari O'zbekistonda umumiy ta'lim maktablarda, fransuz tilida ixtisoslashgan sinflarda yoki umuman fransuz tili darslarida ushbu mavzular o'qituvchi tomonidan fanga bog'lab o'tilishi, shular bo'yicha ilmiy uslubiy qo'llanmalar yaratilishi, ommaviy axborot vositalarida chiqilishi lozim;

- Beruniyning tarixiy qarashlarini, qadimgi xalqlarning urf-odat va marosimlarini o'rganganligini va ularning fransuz tarixchilari asarlarida qanday yoritilganligini tarix fani darslarida ko'rsatib o'tish;

- Hozirgi kunda fransuz olimlarining Beruniy va Ibn Sino asarlari haqidagi qarashlarini o'zbek olimlarining qarashlari bilan qiyoslab ko'rish va yagona xulosaga kelish zarur deb bilaman;

- Har zamonda ham Yevropalik olimlar uchun Ibn Sino, Beruniy asarlari ularning diqqat markazida bo'lib o'rganilganligi, shuningdek o'zining yuksak bahosini topganligini tarixiy faktlar asosida yoritish;

- Ixtisoslashtirilgan fransuz tili sinflarida hozirgi fransuz olimlarining aynan Ibn Sino va Beruniy asarlari yuzasidan tadqiqot olib borilayotgan olimlar bilan uchrashuvlar o'tkazish;

- Maktablarda dars berayotgan iqtidorli tarixchi, filologlarni fransuz maktab o'qituvchilari orasida onlayn konferensiya va uchrashuvlarni amalga oshirish, ularni fransiyaning sharqshunoslik maktablariga malaka oshirish kurslarida yuborish.

Fransiya sharqshunos olimlari Shimoliy Afrikaning Aljir Xalq Demokratik Respublikasida joylashgan Xalqaro Beruniy astronomiya klubining a'zosi sanaladi (ma'lumki, ushbu davlat 1848-1962-yilgacha Fransiya mustamlakasi bo'lgan). Ushbu klub 1983-yil 17-fevralda Abu Rayhon Beruniy xotirasiga atab tashkil etilgan. Rasmiy tili fransuz tili hisoblanadi. Bugungi kunda Fransiya, Rossiya,

Portugaliya, Tunis, Suriya va boshqa ko'plab Afrika qit'asidagi davlatlar ushbu klubga a'zo sifatida ilmiy faoliyat yuritishadi. Klubga Beruniyning astronomiya sohasida qilgan ijodi ko'plab tadqiqotlar orqali yoritilib konferensiya va ilmiy anjumanlar o'tkazilib kelinadi. Fransiyaning ushbu klubga a'zoligi mamlakatda Sharqshunoslik ilmining rivojlanishida, Beruniy asarlari orqali mamlakatda astronomiya, astrologiya, falakiyotshunoslik fanlariga oid yirik ilmiy manbalar to'planishiga sabab bo'lmoqda. Markaziy Osiyo respublikalari orasida O'zbekiston ushbu klubga a'zo bo'lsa, yurtimizda aniq fanlarning taraqqiy etishiga, hamda Beruniy ilmiy merosiga bo'lgan qiziqishning ortishiga va ta'lim tizimimizda jahon tajribasidan yanada unumli foydalanishga olib keladi. Zero, muhtaram yurtboshimiz **zamon talabi shuki, professorlar va o'qituvchilar o'zlarida mavjud bilim va saviya bilan cheklanib qolmasdan, xorijiy mamlakatlar tajribasini qunt va sabot bilan o'rganib, mag'zini chaqib, undan keyin o'z talabalariga saboq berishlari zarurligini ta'kidlaganlar.**

XULOSA

Bugun mustaqillik yillarida shunday tarixiy bir davrda - xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Biz o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani - bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etish lozimki, ezgu fazilat va intilishlar xalqimizning qon-qoni va suyak-suyagiga singib ketgan. Uning tabiatiga xos bo'lgan yuksak ma'naviyat necha asrlarki bizni ne-ne balo-qazolardan, to'fon va bo'ronlardan sog'-omon asrab kelmoqda. Har qanday bosqin va istilolarga qaramasdan, har qanday og'ir va murakkab sharoitda ham ota-bobolarimiz o'zligini yo'qotmasdan, ma'naviy hayot mezonlari, odob-axloq qoidalariga amal qilib, komillik sari intilib yashagani bugun ham barchamizga ibrat bo'lib, kuch-quvvat bag'ishlab kelmoqda.

Ma'lumki, har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari o'z-o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'lishini hammamiz yaxshi bilamiz.

Ilk o'rta asrlarning dastlabki davrlarida yurtimizning arablar tomonidan bosib olinishi, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda bir muncha qiyinchilik olib kelgan bo'lsa, ko'p o'tmay mintaqada ma'naviy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy

hayot izniga tushib ketadi. Mamlakatda osoyishtalik kuzatilib, hukmdorlar o'rtasidagi nizolarga birmuncha barham berildi.

Movarounnahrda ilm-fanning turli sohalari rivojlanib, ushbu o'lkadan Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Habash al-Hosib, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabilar asos solgan tabiiy fanlar va ijtimoiy falsafiy tafakkur boshqa tarixiy sharoitda, Yevropa Uyg'onish davri yaratgan ma'naviy yutuqlar bilan boyigan, holda kapitalistik ishlab chiqarish aloqalari joriy etila boshlagan davrda Spinoza va fransuz materialistlari ta'limoti bilan boyitilib, klassik falsafaning shakllanishiga asos bo'ldi.⁷⁴ Sharqda, jumladan Markaziy Osiyo mintaqasida sodir bo'lgan ilmiy yuksalish to'rt asr davomida asta-sekinlik bilan g'arbga siljib bordi va XIV-XVI asrlarga g'arb hodisasiga aylandi. Sharqda yaratilgan moddiy madaniyat, texnikaviy kashfiyotlar Yevropada ilm-fan va falsafa rivojini rag'batlantiribgina qolmay, Yevropani o'zi haqida yangicha tasavvurga ega qildi.

Tarixning keyingi suronli davrlarida Movarounnahr mintaqasi Yevropadan orqaga qolib keta boshladi. Mamlakatda sodir bo'lgan toj-u taxt uchun kurashlar, iqtisodiy hayotning izdan chiqishi, savdo-sotiq aloqalarining to'xtab qolishi Markaziy Osiyo mintaqasida barcha sohalarning izqirozi boshlanganini bildirardi. Ammo bu orqaga qolish uzoqqa davom etmadi. "Agar - deb yozadi F.Sulaymonova, - G'arbiy Yevropa fan va texnika rivojining oliy darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, sharq mamlakatlari xalqlari inson qalbini, ruhiy hayot qonuniyatlarini o'rganishda yuqori darajaga ko'tarildilar"⁷⁵

Bugun rivojlangan Yevropa mamlakatlari Sharq xalqlarining tarixi, madaniyati, shuningdek moddiy va ma'daniy merosi bilan qiziqib kelishmoqda. G'arb adabiyotlarga e'tibor bersak, ushbu mamlakatlarga o'rta asrlardan keyin kuzatilgan ilmiy uyg'onish davrida, sharqda taraqqiy ergan falsafa, ximiya, tibbiyot, astronomiya, geologiya, tabiat va boshqa ko'plab fanlarining keyingi

⁷⁴Sulaymonova F. Sharq va G'arb. T. 1997., 398-bet

⁷⁵O'sha manba. 399-bet

g'arb ilmi uchun poydevor bo'lganligini, badiiy adabiyotda sharq adabiyotining ta'sirini inkor etishmaydi. G'arbda bunday xulosalarga kelinishi o'rta asrlar mutafakkirlarining ilmiy merosini tadqiq qilinganidan, tarixiy haqiqatni to'g'ri baholanganligidan dalolat beradi. Bugun sharq va g'arb mamlakatlari o'rtasida diplomatik hamkorliklarning yo'lga qo'yilishi, ikkala mintaqa xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida ijobiy ta'sir qiladi. Ilmiy hamkorliklar natijasida yangi g'oyalar va yuksak madaniy hamkorliklar paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.Karimov. "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". T. "Sharq". 1997 yil. 19 bet.
2. I.A.Karimov. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk keljagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. T., 2015., 110-bet.
3. I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T., 2008, 163-bet
4. Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". Toshkent: "Sharq" 1998, 5-bet
5. Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". Toshkent: "Sharq" 1998, 21-bet
6. Karimov I.A. "O'zbekiston buyuk kelajak sari". Toshkent: "O'zbekiston", 1998. 56-bet.
7. Karimov I.A. "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir". Toshkent. "O'zbekiston". 2015, 114 bet
8. ¹ "Tib qonunlari" asarining eng qadimiy qo'lyozma nusxalari lotin tilida 1201-1300-yillar oralig'ida jamlangan. Lotin tilidagi nusxasi Fransiya Milliy kutubxonasida NB. 6454 raqam ostida saqlanmoqda.
9. ¹8th ed. Brill Academic Publisher; 2006. A bibliography of publication on Islamic and Muslim world since 1906.
10. ¹A.M.Беленицкий, И.Б.Бентович, О.Г.Большаков. Средневековый город Средней Азии. Л. 1973. ст. 133
11. ¹ Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari: (uch jildlik saylanma). 1-jild. Tuzuvchilar: U.Karimov, H.Hikmatullayev., T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993., 4-bet
12. ¹Achena Muhammad, Masse Henri. Avicenne. Le Livre de science (traduction seule). (I), Logique, Métaphysique; (II), Physique, Arithmétique, Géométrie, Astronomie, Musique. Les Belles-Lettres, Paris 1955-1958.
13. ¹Anna-Teresa Tymieniecka.Islamic Philosophy and Occidental Phenomenology on the Perennial Issue of Microcosm and Macrocosm.Springer Science & Business Media, 2006.P.130.
14. ¹ Carra de Vaux. Carra de Vaux (Baron Bernard). Avicenne (Les grands philosophes). -Paris : Felix Alcan, 1900. P. 302.
15. ¹ DEA en sciences de l information et de la communication. option : 4. Manuscrits et imprimes arabes daris la France du XVII e siecle :1 630- 1 740 / Annie VERNAY- NOURI. La page 66.
16. ¹Falsafaensiklopediklug'at. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T. 2010 y., 265-bet;
17. ¹Gardet Louis. Réflexions sur un thème Avicennien. - Mélanges d'orientalisme offerts à Henri Massé. Téhéran: Imprimerie de l'Université, 1963. P. 151 – 159.
18. ¹Goichon A.-M. La philosophie d'Avicenne et son influence en Europe Médiévale. - Paris, 1951. P. 27.
19. ¹ <http://medarus.org/Medecins/MedecinsTextes/avicenne.html>
20. ¹ <http://www.larecherche.fr/savoirs/dossier/emergence-medicaments-chimiques-01-08-2013-124380>
21. ¹ <http://www.tempus.uz/index.php?lang=uz> (ko'rilgan sana: 21.04.2016)
22. ¹ <https://fr.wikipedia.org/wiki/Avicenne>
23. ¹https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu_Ali_ibn_Sino
24. ¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu_Ali_ibn_Sino
25. ¹Jean-Baptiste Bourguignon d'Anville. Éclaircissements géographiques sur la carte de l'Inde. Royal (Paris)., 1753. p.197.
26. ¹ John Lennart Berggren. A Coincidence of Pappos'Book 8 with AlBiruni's Tahdid, in Journal for the History of Arabic Science, vol.2, no.1, 1978 ; AlBiruni on Plane Maps of the Sphere, in Journal for the History of Arabic Science, vol.6, no 1-2, 1982
27. ¹ Kennedy, E.S., Debarnot, M.-Th., 1984. Two mappings proposed by Bīrūnī. Zeitschrift für Geschich der arabisch-islamischen Wissenschaften 1, 145-147. (Editors: We have completed the reference.)
28. ¹O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligi electron sayti.
<http://m.mfa.uz/uz/press/news/2015/08/5065/>
29. ¹ Qarang. Abu Ali Ibn Sino qomusiy olim. Metodik bibliografik qo'llanma. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. Tuzuvchi: RuziyevaF., T. 2004
30. ¹ Qarang. https://en.wikipedia.org/wiki/Cogito_ergo_sum
31. ¹ Qayumov A. Abu Rayhon Beruniy. Abu Ali Ibn Sino. T.: "Yosh gvardiya". 1987., 91-92 betlar
32. ¹Sachau, Dr.Edward C. (1910), ALBERUNI'S INDIA – An account of ... India about A.D. 10301, Kegan Paul, Trench Trubner & Co.Ltd., London. // Alberuni's India : an account of the religion, philosophy, literature, geography, chronology, astronomy, customs, laws and astrology of India about A. D. 1030. T. 2 / an english edition, with notes and indices by Dr. Edward C. Sachau. 1879.
33. ¹SulaymonovaF., SharqvaG'arb. (Qadimiy davr va o'rta asrlar madaniy aloqalari). T.: 1997., 192-bet

34. ¹ Vv.Aa., Wikipedia, http://en.wikipedia.org/wiki/Abū_Rayhān_al-Bīrūnī
35. ¹ Xayrullayev M.M. O'rta Osiyodailk Uyғ'onishdavrımadaniyati. T., 1994, 71-72 betlar
36. ¹ Адам Мец. Мусулманский Ренессанс. Издание 2-е., М.1973.
37. ¹ Б.В.Хасанов, Э.К.Арифджанов, Ш.К.Алимов, Б.А.Ирмухамедов. История Узбекистана. Курс лекции. Част 1. Т., 2003. ст.111.
38. ¹ Б.Н.Засыпкин. Архитектура Средней Азии. М.1948., ст. 38
39. ¹ Бабаджанов Б. Из истории Кубравийского братства в эухаре. // Узбекистан - вклад в цивилизацию. Бухара и мировая культура. Вып. 3 Ч. 1. -Бухара, 1995. // Irisov A., AbuAliibnSino, T., 1980 // Xayrullayev M. M., O'rta Osiyodailk uyғ'onishdavrımadaniyati, T., 1994 // Xayrullayev M. M., Uyғ'onishdavrıva Sharkmutafakkiri, T., 1971 // Mo'minov I. M., O'zbekistondagitabiyy-ilmıyvajtimoiy-falsafiytafakkurtarixidanlavhalar. T., 1999
40. ¹ Зарринкуб. Исламская цивилизация. Пер. М. Махшулов. — М.: «Андалус», 2004. ст.146.
41. ¹ Иса Джаббаров Древний Хорезм – страна высокой культуры и уникальной духовности (Этно-исторические очерки). М.: ИЭА РАН, 2014. 304 с.
42. ¹ Крачковский, Том IV, Издательство Академии Наук СССР., Москва-Ленинград., 1957., стр. 255.
43. ¹ Литературная Энциклопедия терминов и понятий. Гл. ред. А.Н.Николюкин. М. 2001., ст. 131
44. ¹ Мец А. Мусулманский ренессанс, ст.147
45. ¹ Мец А. Мусулманский ренессанс, ст.179
46. ¹ Современный энциклопедический словарь. М. 1997.
47. ¹ Т.И.Райнов. Великие ученые Узбекистана (IX-XI вв.) Издательство Уз Фан., Т. 1943., ст. 23-24
48. ¹ фон Грюнебаум Г.Э. Классический ислам. Очерк истории (600-1258). Пер. с англ. - М.: Наука. Главная редакция восточной литературы изд-ва "Наука", 1986. ст.103
49. ¹ Цит. по кн.; Из истории социально-политических идей. 1955, ст.135-136
50. ¹ <http://www.artprojekt.ru/gallery/giotto/Gio50.html>